

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

O`zbek filologiyasi fakulteti

O`zbek tilshunosligi kafedrası

MUHAMMADIYEV AKMAL SADRIDDINOVICH

**NUTQ MADANIYATI MUAMMOLARINING
GAZETADA YORITILISHI**

5220100 – Filologiya(o`zbek filologiyasi) bakalavriat ta`lim yo`nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

**Ilmiy rahbar filologiya fanlari doktori,
professor A.Abdusaidov**

SAMARQAND - 2012

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**O`zbek filologiyasi fakulteti
O`zbek tilshunosligi kafedrası**

**MUHAMMADIYEV AKMAL SADRIDDINOVICH
NUTQ MADANIYATI MUAMMOLARINING
GAZETADA YORITILISHI**

5220100 – Filologiya(o`zbek filologiyasi) bakalavriat ta`lim yo`nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar

A.Abdusaidov

Rasmiy taqrizchi

I.Po`latov

Malakaviy bitiruv ishi o`zbek tilshunosligi kafedrasining 2012-yil 5-iyundagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan(13-son bayonnoma).

Kafedra mudiri

prof. A.Abdusaidov

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2012-yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan va ____ ball bilan baholangan(____-son bayonnoma).

YADAK raisi

prof. I.Haqqulov

A`zolari:

SAMARQAND - 2012

REJA:

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.

KIRISH

Nutq madaniyati va adabiy meyor muammolarining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi.

1-bob. SAVODXONLIK DARAJASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID MATERIALLAR TADQIQI.

2- bob. NUTQ MADANIYATI VA MAHORATINI EGALLASHGA OID MATERIALLAR TADQIQI.

XULOSA

ADABIYOTLAR.

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov alohida qayd etganidek, «1992 yil 7 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitusiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi. O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi.

Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o'zbek tilining o'rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Shu borada o`zbek tilining kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo`llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog`lik katta ekanini ko`rsatadi.

Biz ajdodlardan avlodlarga o`tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur»¹.

Prezident Islom Karimovning o`zbek tilining hozirgi mavqeiga bergan bunday bahosi nihoyatda e`tiborga sazovordir. Davlat tilining ijtimoiy hayotimizda keng o`rin egallaganligi, uning obro`-e`tibori oshib borayotganligi, imkoniyatlaridan tobora samarali foydalanilayotganligi ona tilimizga bo`lgan faxr-iftixor tuyg`ularimizni yanada jo`sh urdiradi, g`ururlantiradi.

Davlat tiliga e`tiborni yanada oshirish, undan oqilona foydalanish, talabalar va o`quvchilar nutqining adabiy til meyorlariga mos bo`lishiga erishishda ta`lim jarayonining ahamiyati katta. Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisining dars jarayonidagi sabog`i, hatto boshqa sohalarda dars beradigan ustozlarning til qoidalariga mos holda o`zbek tilidan oqilona foydalanish haqidagi ma`lumotlarni berishi keyingi paytlarda yo`l qo`yilayotgan ayrim xato-kamchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi.

Ta`lim jarayonini tashkil etish, ayniqsa, nutq madaniyatiga e`tibor sohasidagi tavsiyalar va uslubiy qo`llanmalarga keyingi yillarda ehtiyoj yana ortmoqda. Chunki ta`lim jarayoni uzluksiz va izchil bo`lib, u har bir fan o`qituvchisidan chuqur bilim, malaka, ko`nikmalar va o`zbek adabiy tili qonun-qoidalarini puxta bilish, amalda qo`llay olishni ham talab etadi. Zamonaviy o`qituvchidan mutaxassislik fanlari sirlari, kompyuterda ishlay olish mahoratini yaxshi bilishidan tashqari yozma va og`zaki nutqi yuqori saviyada bo`lishi talab etiladi.

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008, 85-86-б.

Ma'lumki, O'zbekiston yosh, rivojlanayotgan mamlakatlar ichida birinchilardan bo'lib ta'lim tizimini isloh qilishga kirishdi va Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" va "Ta'lim to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Prezidentimizning qator ma'ruzalari, jumladan, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi qo'shma majlisida 2010 yil 12 noyabrda so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzusidagi ma'ruzasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, mutaxassis kadrlarning ona tili imkoniyatlarini puxta bilishlariga erishish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab ommaviy axborot vositalari(gazeta, jurnal, radio, televideniye)ga katta e'tibor berildi. Bugungi kunda ular jamiyat hayotining muhim axborot vositasiga aylangan. Ommaviy axborot vositalariga 21 yildan buyon ko'rsatilayotgan katta e'tibor tufayli ularning ta'sirchanligi tobora oshib bormoqda.

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati va adabiy norma muammolarini o'rganish sohasida salmoqli tadqiqotlar yaratilgan. OAV, xususan, gazetalarda savodxonlikni yanada oshirish, yuqori nutq madaniyati, yozma va og'zaki nutq mahoratini egallash, notiqlikka erishish borasida ko'plab maqolalar nashr etilmoqda. Gazetalarda nashr etilayotgan maqolalar va ularda tilga olingan muammolarning mavzu yo'nalishlarini belgilash, mavjud vazifalarning yechimini topishda ularning o'rnini ko'rsatish dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati va adabiy meyor(norma) masalalari atroflicha o'rganilgan salmoqli

ilmiy tadqiqotlar mavjud². Gazetalarda nashr etilgan ilmiy-ommabop maqolalar umumlashtirilib, tahlil etilgan ishlar sanoqli deyish mumkin. Ilmiy rahbarimiz A.Abdusaidovning bir qator ishlarida gazeta tili muammolarini yoritish bilan birga gazetalarda chop qilingan maqolalarga munosabat ham berilgan³ yoki ular risola shaklida to'plangan⁴. Keyingi yillarda OAVda nutq madaniyati masalalarini o'rganishga doir maxsus ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Masalan, D.Teshaboyevaning «Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida)» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi davlat OAV tilining nutq madaniyati me'yoriylik, kommunikativlik va etik aspektlarda o'rganilgan⁵ tadqiqot sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega.

Respublikamiz gazetalarida yuqori savodxonlikni ta'minlash, nutq madaniyati va mahoratini egallashga bag'ishlangan, adabiy til meyorlarini puxta bilishga da'vat etuvchi, yutuq va kamchiliklar tahlil qilingan, muammolarnig yechimi ko'rsatilgan ko'plab ilmiy-ommabop maqolalar nashr etilgan. Ularda tilga

² Қаранг: Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, I қисм.- Тошкент, 1996. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, II қисм. - Тошкент, 1997. Бегматов Э. Маматов А. Адабий норма назарияси, III қисм. - Тошкент, 1998. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983. Маматов А.Э Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари.- Тошкент, 1991. Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006. Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент, 2004. –130 б. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev G'. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: Fan, 1992 va бошқалар.

³ Абдусаидов А. Матбуот тили маданияти. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, 2001. – 120 б. Абдусаидов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. – Самарқанд, 2004. – 102 б. Абдусаидов А. Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти («Социолингвистиканинг долзарб муаммолари» туркумидан. Тил маънавияти, нутқ маданияти ва саводхонликка таъсир килувчи омиллар). Монография. – Самарқанд, 2008.- 120 б.

⁴ Абдусаидов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш. Рисола. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, 2011. – 98 б.

⁵ Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт. ... дис.автореферати. - Тошкент, 2012. – 48 б.

olingan muammolar va yechimining ko`rsatilishi nuqtai nazaridan maqolalarni tahlil etish, umumlashtirish har jihatdan foydali, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot ishining kafedra ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog`liqligi.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o`zbek tilshunosligi kafedrasining 2011-2015 yillarga mo`ljallangan “O`zbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)” mavzuidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Ommaviy axborot vositalarida o`zbek tili birliklarining funksional-semantik va pragmatik tahlili” bandiga asosan bajarilgan.

Tadqiqot mavzusi o`zbek tilshunosligi kafedrasining 2011 yil 7 sentyabrdagi 2-son majlisi qarori bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot manbai va tadqiq usullari. Malakaviy bitiruv ishida Respublikamiz va viloyatlarda nashr etilayotgan “Xalq so`zi”, “Ma`rifat”, “O`zbekiston ovozi”, “Zarafshon”, “Milliy tiklanish”, “Adolat”, “Samarqand”, “Adolat” sari” kabi gazetalardan to`plangan nutq madaniyati masalalari yoritilgan ilmiy-ommabop maqolalar tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Adabiy meyor va nutq madaniyati sohasida yaratilgan tadqiqotlar, xususan. R.Qo`ng`urov, E.Begmatov, A.Boboyeva, A.Mamatov, R.Rasulov, H.Nematov, S.Karimov, B.Yo`ldoshev, A.Abdusaidov va boshqalarning ilmiy asarlariga tayanib, fikr-mulohazalarimizni bildirdik.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Gazetalarda chop etilgan ilmiy-ommabop maqolalarda yuqori savodxonlik va nutq madaniyati muammolarining yoritilishi, yo`nalishlari, ilmiy tadqiqot ishlari bilan uyg'unligi, muammolar va ularning yechimining ko`rsatilishi, ta'lim tizimida bu sohadagi vazifalar, tavsiyalarining nechog'lik ahamiyatga egaligi jihatidan tahlil qilishga harakat qildik.

Himoyaga olib chiqiladigan masalalar quyidagilar:

- Gazetalarda yuqori savodxonlikka erishishni targ'ib etuvchi, o'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga rioya etilmayotgan holatlar tahliliga bag'ishlangan ko'plab maqolalar chop qilingan.

- Gazetalar sahifalarida adabiy til meyorlari buzilgan holatlar tahlil etilgan, adabiy meyorga rioya qilish yo'llari ko'rsatilgan, ilmiy-amaliy tavsiyalarga boy maqolalar ko'plab nashr etilmoqda.

- Nutq madaniyatining umumiy asoslari, uni egallashning usullari tahlil etilgan, amaliy tavsiyalarga boy maqolalar chop qilinmoqda.

- Og'zaki va yozma nutq madaniyatini egallash, notiqlikka erishishni targ'ib etuvchi maqolalarning ahamiyati juda katta. Bu sohada ham gazetalarda anchagina maqolalar nashr etilmoqda.

- Gazetalarda nutq madaniyatini targ'ib etuvchi, imlo qoidalar va adabiy meyorning boshqa qoidalariga rioya qilinishini ko'rsatuvchi turkum maqolalarning doimiy ruknlar ostida chop etilishi davr talabidir.

- Gazetalar sahifalarida nashr etilayotgan, ilmiy-amaliy ahamiyati katta bo'lgan ilmiy-ommabop maqolalarni yagona nom ostida kitobda jamlab, nashr ettirish ulardan foydalanishni osonlashtiradi, ularning samarasi yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Gazetalarda bosilgan ilmiy-ommabop maqolalarning tahlili ularning qaysi yo'nalishlarda muammolar mavjudligini ko'rsatish va e'tiborni qaratish lozim bo'lgan masalalar tadqiqini davom ettirishga undaydi. Yuqori savodxonlikka erishish va nutq madaniyati muammolarining ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqot jarayonida e'tibortalab mavzularini belgilashga yordam beradi.

Malakaviy bitiruv ishida umumlashtirilgan va guruhlashtirilgan maqolalar tahlili ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqot ishlari olib borish jarayonida faoliyat yuritayotganlar, talabalar uchun qo'shimcha manba sifatida ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»(1997)gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari nuqtai nazaridan fikr yuritganda, bo'lajak va soha mutaxassislari adabiy til imkoniyatlaridan to'la foydalana olishlari, adabiy me'yorga rioya etilishidan xabardor bo'lishlari, chuqur bilimli, nazariy bilimni amaliyotda qo'llaydigan yetuk kadrlar sifatida faoliyat yuritishlari lozim. Buning uchun gazetalarda nashr etilayotgan turli mavzular, xususan, nutq madaniyati sohasidagi ilmiy-ommabop maqolalardan xabardor bo'lishlari, ularni mutolaa qilishlari har jihatdan foydalidir.

KIRISH

Nutq madaniyati muammolarining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi

Ma'lumki, «Ichki qurilish nuqtai nazardan til ma'lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir»⁶.

Tilning takomillashib borishi va nutq jarayonidagi bosqichlarini taniqli tilshunos olimlar H.Nematov va R.Rasulovlar sistem tilshunoslik «til-meyor-nutq» tarzida ajratishini ta'kidlashib, qayd qiladilarki, «til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisi sifatida qaraladi.

Til xalq milliy qadriyatlari, ma'naviyati, hatto mafkurasining tarkibiy qismi sifatida kishilar o'rtasida nafaqat o'zaro aloqaning, balki ularni tarbiyalashning quroli hamdir. Ona tiliga hurmat Vatanga muhabbatdir. Ona tilini e'zozlash - bu o'sha tilning vatani bo'lmish O'zbekistonni ezozlashdir. Ona tiliga munosabat jamiyat a'zolarini tarbiyalashning muhim qurolidir. Tilga munosabat, bu - umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir⁷.

Ona tili mamlakatning g'ururi, iftixori hisoblanadi. Millatning madaniyati, ma'naviyati, ziyolilik darajasi ona tiliga munosabatda ham aniq ko'rinadi. O'zbek tili o'zbek xalqining milliy boyligi sifatida qadim-qadimdan bugungacha ajdodlarimiz tomonidan ezozlanib, ardoqlanib, sayqallanib kelmoqda.

⁶ Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2009, 22-б.

⁷ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. III қисм. – Тошкент, 1999, 7-б.

O`zbek adabiy tilining asoschisi Mir Alisher Navoiyning ona tilimizga munosabatlari, bu tilning nihoyatda boy, go`zal, takrorlanmas til sifatidagi imkoniyatlarini o`zlarining shoh asarlari bilan isbotlab berganliklari, ona tilimizning sofliqi, obro`-e`tibori, ta`sirchanligi, yuqori nutq madaniyati uchun kurashganliklari, millatimizning faxri sifatida, har qancha tahsinga, ezozga loyiqdir. Til va nutq madaniyati jamiyat hayotining ajralmas qismi, chunki ona tili muhim tarbiya vositasi sifatida kishilarni buyuk maqsadlar sari yo`naltiradi, ruhlantiradi, ezgu orzu-umidlar bilan yashashga undaydi. So`zning kuch-qudrati, tilning o`tkir qurol ekanligini Alisher Navoiy asarlari misolida aniq his etish mumkin.

Tarixdan hozirgacha ona tiliga munosabat turlicha bo`lib kelgan. Lekin eng muhim yutuq shundaki, o`zbek tili ildizi chuqur eng go`zal til sifatida boy leksikasi, ifoda-tasvir vositalari, rang-barang grammatik qurilishi bilan milliy adabiy meros sifatida keng imkoniyatlarini hamon saqlab kelmoqda. Uning betakror imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, rivojlantirish, boyitib borish uchun millatning har bir farzandi mas`ul va uning taraqqiyoti uchun hech kim befarq bo`lmasligi lozim. O`zbek tili o`zbek xalqining milliy adabiy tili sifatida, uning obro`-e`tiborini ko`tarish, yuksak ma`naviyati va madaniyatini ko`z-ko`z qilish, yutuqlarimiz to`g`risida g`ururlanib so`zlash, o`zligimizni namoyish etish uchun asosiy vosita ekan, doimo g`amxo`rlikni, e`tiborni, parvarishni talab qiladi. Adabiy tilni parvarish qilish, uning mavqeini tobora ko`tarish esa uning qonun-qoidalariga, ya`ni adabiy til normasiga qat`iy rioya etish bilan belgilanadi. O`zbek adabiy tiliga etibor uning davlat tili sifatidagi mavqeini ta`minlash, ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-madaniy, iqtisodiy turmushdagi rolini oshirish, ta`lim-tarbiya, ish yuritish, nashr ishlari, OAVda yuqori madaniyat bilan foydalanish, so`z boyligi va grammatik qurilishidagi o`zgarishlarni xolisona baholab borish, zarur bo`lganda, ma`lum choralar ko`rish, til rivoji uchun ongli aralashishni amalga oshirish kabilar bilan chambarchas bog`liqdir.

O`zbek tiliga munosabat sobiq ittifoq davrida silliq kechmagan edi. Millatlar va ularning milliy qadriyatlariga, tarixiy, milliy, diniy meroslariga, shu jumladan milliy tillarga hukmron mafkura nuqtai nazaridan bir yoqlama yondoshish ko`plab millatlar va ularning tillari kamsitilishiga olib keldi. O`zbek tiliga etiborning nihoyatda susayganligi uning ish yuritish, ta`lim-tarbiya, noshirchilik, OAVda qo`llanilishi, hatto so`zlashuv tilidagi mavqeiga anchagina putur yetkazdi. Natijada o`zbek tilining keng imkoniyatlarini yuzaga chiqarish cheklandi, OAV tili tobora rasmiy, tarjima tiliga aylana boshladi, jonli so`zlashuvni ruscha so`zlarsiz amalga oshirish mumkin bo`lmay qoldi. O`zbek adabiy tili g`amxo`rlikka, parvarishga muhtoj bo`lib qolganini millatimiz jonkuyarlari - yozuvchilar, shoirlar, jurnalistlar, olimlar, o`qituvchilar anglab yetdilar. Dastlab ma`lum ehtiroslar bilan boshlanib, so`ngra aniq maqsad - millat faxri, g`ururi, boyligi, obro`-etibori hisoblanmish o`zbek tilining qonuniy mavqeini ko`tarish kabi yezgu niyat bilan qo`yilgan dadil qadamlarni xalqimiz, eng muhimi, yurtboshimiz qo`llab-quvvatladi. O`zbek tiliga davlat maqomi berildi. Bu - shunchaki rasmiy nom emas, balki millatimiz g`ururiga, ma`naviyat belgisiga hurmat-etibor namunasi edi.

Mustaqillik davrida o`zbek tilining mavqei nihoyatda oshdi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma`rifiy va boshqa barcha jabhalarda davlat tili amalda qo`llanila boshlandi. O`zbek tilining boy, go`zal, betakror imkoniyatlarini istiqlool ruhi, bunyodkorlik hissi, millat g`ururi asosida yuzaga chiqarish uchun ziyolilar, yozuvchilar, shoirlar, mutaxassis olimlar, ayniqsa, jurnalistlarning sa'y-harakatlari kuchaydi.

Istiqloolning dastlabki yillarida o`zbek tilining obro`si uchun o`ziga xos qat'iy harakat - kurash boshlandi. Matbuotda, radio-televideniye orqali o`zbek adabiy tilining o`ziga xosligi, so`z qo`llash, grammatik shakllarni ishlatish, yangi so`z va terminlarni ijod yetish borasida rang-barang fikrlar bildirildi. Ular orasida matbuot tiliga alohida e`tibor berila boshlandi. Bu - bejiz emas. Chunki matbuot - millat jarchisi, ma`naviyat ko`zgusi, muhim tarbiya vositasi hisoblanadi. Matbuot

targ'ibot, tashviqot, tarbiya, ta'sirchanlik vositasi sifatida o'zbek adabiy tilining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning taraqqiyot darajasini belgilash, adabiy til qonun-qoidalarini, savodxonlikni, nutq madaniyatini ko'rsatish uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbek adabiy tilida yuz berayotgan jarayonni kuzatib borish, tahlil yetish, baholash, tegishli xulosa chiqarish, unga g'amxo'rlik qilish, noto'g'ri holatlarni tuzatish, parvarish qilishda matbuot ulkan vazifani bajaradi⁸.

O'zbek adabiy tili qat'iy qonun-qoidalariga, ya'ni adabiy normaga ega. Adabiy til normasiga qat'iy amal qilish ona tiliga, uning sohibi hisoblangan o'zbek xalqiga, Vatanimizga hurmat-etibor ko'rsatish bilan barobardir. Ayniqsa, adabiy normaga rioya etish matbuot xodimlari, jurnalistlar va ziyolilarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Ma'lumki, tilning jamiyatda aloqa quroli rolini bajarishi uning kommunikativ vazifasini tashkil qiladi. Tilning muayyan xabar, darak ifodalab, ta'sir qilishi esa uning ekspressiv vazifasi hisoblanadi. Ekspressiv vazifa muayyan xabar ifodalash va tinglovchiga yetkazish kabi informativ vazifani hamda his-hayajon, hissiyot (emosiya) ifodalash kabi emotiv vazifani ham o'z ichiga oladi. Ayni vaqtda til millatlararo aloqa vositasi, tajriba va bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazish quroli ham bo'lib, bu jarayonlar tilning akkumulyativ (to'plash, yig'ish) vazifasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi, ayni vaqtda, uning gnoseologik (bilish jarayoni) funksiyasi deb ham yuritiladi.

Xullas, til jamiyatning aloqa quroli sifatida nutq tovushlaridan, ularning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'ladigan so'zlardan, grammatik vositalardan va

⁸ Абдусайдов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. – Самарқанд, 2001, 173-176-б.

ulardan maqsadga muvofiq foydalanish qoidalaridan tashkil topgan ijtimoiy-tarixiy, madaniy va mantiqiy sistemadir, ma'naviyat belgisidir⁹.

Til va nutq o'rtasidagi bog'liqlik, o'zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma'lum bo'ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali reallashadi. Til bir vaqtning o'zida ham asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu materialdan fikr shakllantirishdir. Tilning yashashi, mavjudligi, taraqqiyoti nutq orqali buladi. Masalan, men o'z nutqimda o'zbek tilidan foydalanib gapiryapman, demak, bu o'zbek tilining mavjudligi, uning yashayotganligidir. Demak, tilning har bir aniq ko'rinishi real nutqdir, nutq faoliyatidir.

Til inson xotirasida mavjud lisoniy (lingvistik) birliklardan va qoidalardan iborat xazinadir. Nutq yesa ushbu birliklarning muayyan qoidalar asosidagi faol harakati, muayyan ijtimoiy vazifa bajarishi, ya'ni nutq jarayondir, amaliyotdir. Til ham, iutq ham ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til va nutq biri ikkinchisi orqali amalga oshadi, ya'ni til nutq orqali, nutq yesa til orqali voqyelashadi, namoyon bo'ladi.

Til va nutq o'zaro aloqador, bir-biri bilan bog'liq, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan, ammo bir-biridan farqli bo'lgan ijtimoiy hodisalardir.

Til mavhumdir, nugq esa aniqdir, ya'ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va ko'ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo'lib, muayyan o'rinda (joyda) va muayyan vaqtda yuz beradi. Nutq so'zlovchining, tinglovchining va predmetning – fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo'lishini talab qiladi. Nutq - alohida shaxsga, individga bog'liq. Til esa alohida shaxsga, individga bog'liq emas. Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq, A.A.Potebnya aytganidek, til

⁹ Мавзуни ёритишда куйидаги манбадан фойдаландик: Расулов Р. Умумий тилшунослик – Тошкент, 2006, 13-18-б.

xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir. Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qoʻl harakati bilan (jest) yoki qoʻl harakatisiz, aniq yoki noaniq boʻlishi mumkin, tilga bunday taʼrif-tavsif toʻgʻri kelmaydi. Nutq ham monologik, ham dialogik boʻla oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham boʻla olmaydi. Til - aloqa quroli, nutq - aloqa usuli. Til - imkoniyat, nutq - voqyelik, taʼsirchanlik. Til - umumiylik, nutq - xususiylik, alohidalik. Nutq kelib chiqishiga koʻra birlamchi, yaʼni oldin nutq - nutq tovushlari paydo boʻlgan, til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan. Til tahlil qilish yoʻli orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi. Tilning hayoti uzoq, xalqning hayoti bilan bogʻliq, nutqning hayoti esa qisqa, yaʼni aytilgan vaqtdagina mavjud. Tilning alohida vazifasi boʻlgan nutq psixologiya, tilshunoslik (uslubshunoslik, nutq madaniyati va b.), fiziologiya (nutq apparatining tuzilishini oʻrganadi), informasiya nazariyasi va boshqa fanlar tomonidan tekshiriladi. Til - tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semiotika va boshqa fanlar tomonidan oʻrganiladi. Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi. Nutq yesa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati - faolligi uchun xizmat qiladi¹⁰.

Madaniyat tushunchasi nihoyatda keng boʻlib, u jamiyat hayoti va faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan deyarli barcha jarayonlarni, yoʻnalishlarni, hodisalarni qamrab oladi. Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining oʻta muhim, ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeyligi, koʻrinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala, soʻzlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni oʻz ichiga oladi, ularni “boshqaradi”, ular orqali voqyelikka aylanadi, taʼsir qilish quvvatiga ega boʻladi.

¹⁰ Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2006, 19-25-б.

Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o`zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo`lishidir. Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjuddir. Bu tushuncha muayyan aloqador tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va ma`naviyatini belgilovchi etik va estetik kategoriyadir, hodisadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq meyorlashga qaratilgan harakatlarga yemas, balki millatning umumiy ko`tarish, odamlarga ma`lum "til didi"ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir. Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda yetadi:

Madaniy nutqning, ya'ni nutqiy hodisaning nomi.

Madaniy nutq tushunchasi bilan bog`liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi.

Nutq madaniyati muammolarini o`rganish bilan shug`ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo`limining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har biri murakkab ko`rinishlariga, qirralariga ega. 1. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o`ziga xos xususiyatlaridan biri. 2. Nutq madaniyati (til madaniyati) - bu adabiy til yordamlashishidan iborat bo`lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praganing lingvistik maktabi). 3. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, foydali nutq tuza olish mahoratidir. 4. Nutq madaniyati kishilarning o`zaro to`liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir. 5. Nutq madaniyati faqat to`g`ri nutqgina emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlik hamdir. 6. Nutq madaniyati til vositalarida o`rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so`zlash va yoza olish san`atidir. 7.

Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir. 8. Milliy o`ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir.

Nutq madaniyati tilni aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo`lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo`lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo`lsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori saviyada bo`ladi. Aksincha bo`lsachi, unda nutq madaniyati ham past saviyada ham bo`lishi muqarrar.

Nutq o`ziga xos xususiyatlarga ega. U ma`lum aloqani ta`minlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon esa suhbatdoshning shaxsi, yoshi, mavqei, bilim darajasi va vaziyat bilan bog`liq. Bu haqda tilshunos olimlarning fikrlari etiborlidir. Masalan, professor B.O`rinboyev «Nutq va notiqlik san`ati» nomli maqolasida quyidagilarni bildiradi: «1. Har bir nutq ma`lum maqsad bilan so`zlanib, o`z g`oyaviy yo`nalishiga va estetik kuchga egadir. Bu xususiyatlar nutqning tashqi xarakteriga xosdir.

Ba`zan so`zlashuvchining o`ziga qaratilgan, talaffuz etilmaydigan nutq ham bo`ladi. Bunda so`zlovchi o`zi bilan gaplashadi. Bunday nutq intellektual, bog`lanishli nutq xarakterida bo`lishi mumkin.

Nutqning turli tiplari uning qo`llanish doirasi va sosiolingvistik tegishliligi bilan belgilanadi. Til birliklaridan qanday tarzda va qaysi sistema asosida foydalanishga qarab nutq ogzaki va yozma shaklda bo`ladi.

Til vositasida u yoki bu sharoitda aloqa qilish va turli kommunikativ maqsadni amalga oshirish mumkin. Shunga ko`ra, nutq bir necha xil bo`ladi: kundalik nutq, ishchan nutq, tantanavor nutq, dialektal nutq, poyetik, odobiy so`zlashuv nutqi, professional nutq, ommaviy nutq, so`zlashuv nutqi, sahnaviy nutq, badiiy nutq, folklor nutqi, obraz nutqi, muallif nutqi, personaj nutqi kabilar.

Nutq qanday ko`rinishda bo`lishidan qat'iy nazar o`zining ma'lum xususiyatlariga egadir. Har bir nutqda o`zining harakati bo`lib, bunda nutqning ritmik-sintaktik tomondan shakllanishida paydo bo`luvchi davrning dinamik xususiyati nazarda tutiladi. Nutq harakati uning tempini ham belgilab beradi. Nutqning tempi tez bo`lsa, nutqdagi so`zlarda reduksiya hodisasi yuz beradi. Nutq tempi sekin bo`lsa, so`zlar to`liq shaklda keladi. Nutq ham kichik-kichik bo`laklarga ajraladi.

Nutq tildan farqli holda o`z birligiga egadir. Tabiiy qonuniyat asosida nutq oqimida paydo bo`luvchi bo`g'in, so`z, so`z birikmasi va gap nutq birligi sanaladi. Nutq birliklari intonasiya va pauzalardan to`g'ri foydalana bilish orqaligina ajraladi.

Aloqa vositasi bo`lgan tilda qonunlashtirilgan orfoyepiya, so`z qo`llash va boshqa qoidalarga mos ravishda individual so`zlashuvda eng yaxshi an'analarga amal qilish nutq madaniyati sanaladi. Nutq madaniyatining saviyasi tilning orfoyepik, grammatik, leksik, stilistik normalaridan to`g'ri foydalana bilishdadir.

Nutqning orfoyepik madaniyati til materialini to`g'ri, ifodali talaffuz qilish bilan bog`liqdir. Nutqning ifodaliligiga so`zni aniq va yorqin ifoda qilish, intonasiya va pauzalardan to`g'ri foydalanish orqaligina erishiladi.

Lug'at madaniyati individual lug'atning faol kengayib borishini, so`zlarning to`g'ri va ko`chma ma'nolarining ahamiyati ortib borishini ko`zda tutadi. Sinonimlar, omonimlar va antonimlardan to`g'ri foydalanish, atama(termin)lar va ularni to`g'ri tatbiq etish, chet el so`zlarini bilish va ularni o`z o`rnida to`g'ri ishlatish, so`zlarni to`g'ri tanlash, ularning ma'nolarini etiborga olish, so`zlar va ko`chma ma'nodagi iboralardan hamda obrazli ifodalardan foydalana bilish nutqning badiiyligini oshiradi. Ko`chma ma'noda ishlatiladigan so`zlar, o`xshatish, epitet, istiora, metonimiya, sinekdoxa va boshqalar shular jumlasidandir.

Bunda notiq til madaniyatidan to`g'ri foydalana olishi kerak. Ba'zan o`z nutqini to`g'ri tashkil eta olmaslik, badiiy ifodaning mavjud qoidalarini buzish,

nutq soʻzlashda maʼlum vaziyatni hisobga olmaslik hollari uchrab turadi. Bunga asosiy sabablardan biri nutqda til madaniyati, psixologiyasi va kommunikasiyasini bir-biridan farqlay olmaslikdir. Bundan tashqari, nutqni mantiqan toʻgʻri tuza olmaslik, ishchanlik ruhining yetishmasligi, ishontirolmaslik, hayotni roʻy-rost aks yettira olmaslik faktlari uchrab turadi. Ana shu xususiyatlarni toʻgʻri farqlay olgandagina notiq oʻz nutqini maʼlum maqsadga yoʻnaltira oladi.

Nutqning grammatik shakli va sintaktik madaniyati, avvalo, normativ grammatika qoidalariga rioya qilishda, grammatik shakllarni toʻgʻri qoʻllashda, kelishiklar, soʻzlar va birikmalardan toʻgʻri foydalanishga bogʻliq. Soʻz birikmalarining soddaligi va aniqligiga qatʼiy rioya qilish zarur. Sodda, tushunarli gapirish uchun esa ellipsis, takror, ritorik soʻroq, ritorik murojaat, xitob, gradasiya, antiteza, sintaktik parallelizm kabi maxsus stilistik usullardan foydalana olish kerak. Bu xil masalalarni oʻrganish umumiy nutq madaniyatini oshirishda katta amaliy ahamiyatga ega boʻlishi bilan birga, nutq sanʼatini shakllantirish uchun ham muhim omildir»¹¹.

Meyor - jamiyat aʼzolari tomonidan qabul qilingan, maʼqullangan va ularga tushunarli boʻlgan til birliklari-ning nutq jarayonida qoʻllanish holati va imkoniyatidir. Meyor - tilning yashash shaklidir.

Til va nutq tizimida meyor oʻziga xos oʻrniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni meyorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va meyoriy muammolar kun tartibiga qoʻyilgan.

Nutq madaniyati toʻgʻrisida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda soʻzlarning oʻrinli va oʻrinsiz ishlatilishi toʻgʻrisida ham bahs boradi. Qoʻllangan til birligini toʻgʻri yoki notoʻgʻri deyilganda, albatta, maʼlum bir oʻlchovga asoslanamiz. Mana shu oʻlchov tilshunoslikda adabiy til meyori deb yuritiladi.

¹¹ Ўринбоев Б. Нутқ ва нотиклик санъати.//Ўзбек тилшунослиги масалалар. - Самарқанд, 2006, 29-31-б.

Har bir lahjaning, soʻzlashuv tilining, adabiy tilning oʻz meyorlari boʻlganidek, nutqning alohida koʻrinishlari boʻlgan argolar, jargonlar ham oʻz meyoriga ega. Xususiy meyorlar quyidagicha koʻrsatiladi: 1. Dialektal meyor. 2. Soʻzlashuv nutqi meyori. 3. Argolar, jargonlar meyori. 4. Adabiy til meyori¹².

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi meyoriy holatlarni oʻrganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, maʼnaviy-maʼrifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar eʼtiborga olingan. Til hodisalarini, uning meyoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin boʻlmagan.

Demak, meyor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan anʼanaviylikka ega boʻladi. Tildan foydalanishdagi anʼanaviy meyorlarning davrlar oʻtishi bilan oʻzgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Til elementlarining maʼlum bir meyorga keltirilishi, bir tomondan, til mutaxassislari tomonidan boshqarib borilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi. Ammo, fikrimizcha, bir narsa maʼlum - tilning amalda boʻlish holatlariga tazyiq oʻtkazib boʻlmaydi. Lekin tegishli yoʻl-yoʻriqlar, koʻrsatmalar, tavsiyalar berib borilishi zarur.

Imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va soʻzlashni xalqimiz orasida ommalashtirish, bu qoidalarni lugʻatlar shaklida mustahkamlash, har bir sohada ham tildan foydalanish meyorlarini belgilash bugunning dolzarb vazifalaridan boʻlib qolmoqda. Xalqimizning nutq madaniyatini yanada yuksaltirish masalasi ham muhimligicha turibdi. Chunki milliy istiqlol gʻoyasi talablarini toʻla bajarish, yurtdoshlarimizni maʼnaviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol

¹² Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006, 15-б.

ishtirokchisiga aylantirish, yoshlarimizni erkin, yangicha fikrlashga o`rgatishga til madaniyatisiz erishib bo`lmaydi.

Til birliklarini meyorlashtirish, hamma uchun umumiy va tushunarli bo`lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanaladi. Nutq madaniyati tilda ma`lum meyorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo`llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu meyorga amal qilishni ma`lum ma`noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, bu kamchiliklarni tugatishning eng ma`qul yo`llari ko`rsatib turiladi.

Meyorga nisbatan qo`llaniladigan umumiylik va xususiylik til meyorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma`noda o`zbek umumxalq tilidagi barcha meyorlar yig`indisini umumiy meyor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid meyorlarni xususiy meyorlar sifatida qabul qilish mumkin.

«Umumiy norma tushunchasi o`zbek milliy tilining barcha ijtimoiy vazifaviy ko`rinishlari, nutq tiplari va uslublari uchun mushtarak bo`lgan vositalari tizimi ma`nosini ham anglatadi»¹³.

Xususiy meyor ma`lum til umumiy meyorlarining yashash shaklidir. Shunday ekan, yuqorida sanab o`tilgan o`zbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining meyori xususiy meyor sanaladi. Xususiy meyorlarni yanada aniqroq tasavvur qiladigan bo`lsak, har bir shaxsning tildan foydalanish meyorini ham, o`zbek tilida mavjud bo`lgan beshta – rasmiy, ilmiy, publisistik, badiiy, so`zlashuv uslublari doirasida amal qiladigan meyorlarni ham xususiy meyorlar deb tushunishimizga to`g`ri keladi.

Adabiy til esa umumxalq tilining yashash shakllaridan biri bo`lib, uning boshqa ko`rinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga

¹³ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, II қисм. – Тошкент, 1998, 78-б.

oliy darajada xizmat qilishga mo'ljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqur kirib boradi va keng tarqaladi.

Millat manfaati va madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladigan adabiy tilning o'ziga xos xususiyati, uning umumxalq tilidan farq qiluvchi jihati ko'p bo'lib, ular orasida meyoriylik markaziy o'rinda turadi. O'zbek adabiy tilining o'zbek xalqi uchun umummajburiyligi, ko'p vazifaliligi va uslubiy tarmoqlanganligi kabi xususiyatlarning birontasi meyoriyliksiz amalga oshmaydi.

Adabiy tilning meyoriyligi umumxalq tilining boshqa xususiy meyorlaridan tubdan farq qiladi. Uni tavsiflaydigan va farqlaydigan muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: kodifikasiyalanganlik – ongli aralashuv yo'li bilan tanlanganlik va ongli boshqarish, ongli o'zlashganlik va anglanganlik, egallanganlik va tushunilganlik, qat'iy qoidaga va tartibga solinganlik, yozuvda mustahkamlanganlik, xalqchillik va umumqo'llanuvchanlik, umummajburiylik va namunaviylik, turg'unlik va barqarorlik, ayni paytda, ularning nisbiylik, an'anaviylik va izchillik, zamonaviylik va tipiklik, dinamiklik va tarixan o'suvchanlik, variantlilik va uslubiy tarmoqlanganlik, reallik va obektivlik kabilar.

Meyorlar haqida gap ketganda, ko'pincha, «ongli tanlash» tushunchasi esga olinadi. Tildagi elementlarning meyorlashuvida tanlashning ahamiyati katta, albatta. Jamiyat a'zolari orasida bu jarayon xuddi tabiiy tanlanish singari amalga oshiriladi, lekin u ong yordamida boshqariladi. Kishilar nutq jarayonida o'zlari uchun tushunarli, muddaosini, fikr-mulohazalarini ma'qul tarzda ifodalay oladigan, hatto talaffuzda ham qulay bo'lgan variantlarni tanlab ishlata boshlaydilar va bu variant asta-sekinlik bilan meyoriy ko'rinish sifatida etirof etiladi.

«Adabiy til normasi – bu muayyan qoidalari ostiga olingan, barqaror, shu bilan birga doimo rivojlanib boruvchi, o'zgarib turuvchi, variantdorlik xususiyatiga ega bo'lgan, til tizimi tomonidan yo'l qo'yilgan til hodisalarining yig'indisi bo'lib,

tildan foydalanuvchilar nutqida mustahkamalangan, shuningdek, adabiy tilda soʻzlashuvchilar uchun umummajburiy boʻlgan lisoniy hodisadir¹⁴».

Adabiy norma va nutq madaniyati mummlarini atroflicha tadqiq etgan E.Begmatov adabiy normaga xos quyidagi mezon va xususiyatlarni belgilaydi:

- «1. Adabiy norma ob'yektiv mavjud va moddiy boʻladi.
2. Adabiy norma ongli ravishda ishlangan (normalan-gan, kodifikasiyalangan) boʻladi.
3. Adabiy norma (normativlar) maxsus tanlangan va baholangan boʻladi.
4. Adabiy norma (normativlar) muayyan qat'iy qoidalarga solingan (reglamentasiya qilingan) boʻladi.
5. Adabiy norma yozuvda, yozma manbalarda mustahkamlangan (fiksasiya qilinan) boʻladi.
6. Adabiy norma (normativlar) nufuzli, moʻtabar manbalarga tayanadi.
7. Adabiy norma tasodifiy hodisa emas, balki vazifaviy, lisoniy-kommunikativ jihatdan zaruriy boʻladi.
8. Adabiy norma zamonaviy boʻladi va u tilning zamonaviy (sinxron) holatiga tayanadi.
9. Adabiy norma jamiyat a'zolarining adabiy ko'nikmalariga asoslangan boʻladi.
10. Adabiy norma konkret adabiy tilning ichki rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi, undan oziqlanadi.
11. Adabiy norma barqaror (stabil) boʻladi.

¹⁴ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. III қисм. — Тошкент. 1999, 23-б.

12. Adabiy norma mo`'tadil rivojida o`zgaruvchan, rivojlanuvchan (dinamik) bo`ladi.

13. Adabiy norma an'anviy (tendensioz, qaysar) bo`ladi.

14. Adabiy norma (normativlar) muayyan qolipga, modellarga solingan (standart, turg'un) bo`ladi.

15. Adabiy norma variantdor bo`ladi.

16. Adabiy norma(normativlar) tipik bo`ladi.

17. Adabiy norma xalq sheva va lahjalaridan ustun turuvchi normadir.

18. Adabiy norma namunaviy va mo'tabar normadir.

19. Adabiy norma uslubiy tarmoqlangan normadir.

20. Adabiy norma yopiq konservativ normadir.

21. Adabiy norma (normativlar) madaniy estetik jihatdan baholangan bo`ladi.

22. Adabiy norma vazifaviy(funksional) va aloqaviy funksional jihatdan maqsadga muvofiq normadir.

23. Adabiy norma umumqo'llanuvchan va keng tarqalgan normadir.

24. Adabiy norma ommaviy ravishda tan olinuvchi va o`zlashtiriluvchi normadir.

25. Adabiy norma yagona, umumxalq normadir.

26. Adabiy norma xalqchil normadir»¹⁵.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat

¹⁵ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. III қисм. – Тошкент, 1999, 23-24-б.

arboblarining, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa, mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko'pgina yo'nalishlari bo'yicha qat'iy meyorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko'pgina munozarali masalalar o'zining nazariy asosiga qo'yildi.

Adabiy meyor adabiy til bilan birga, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi. Bugungi kunda ona tilimizga bo'lgan e'tibor nihoyatda katta. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni, 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini hayotga joriy qilish to'g'risida»gi hamda 1995 yil 6 maydagi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunlariga asosan ish ko'rilayotganligi, "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ga amal qilinayotganligi ana shu e'tibordan dalolat beradi.

A.Mamatov quyidagi mulohazalarni bayon qiladi: «Yoshlarning adabiy til normalariga amal qilgan holda so'zlashishi, nafaqat ularning o'qimishlilikidan darak beradi, balki ayni vaqtda aqlli va madaniyatlilikini ham ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlar hamma vaqt nutq madaniyati va nutq odobiga qat'iy rioya qilgan holda so'zlashga harakat qilishlari lozim. Talaffuz etilgan har bir tovush, so'z, ibora, aniq va ravon jaranglashi kerak. Yoshlarning notiq bo'lishi shart emasdir (balki), lekin faqat fikrini, tushunchalarini to'g'ri, aniq iboralar bilan ifoda

qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofligini saqlash har bir yosh avlodning sharaflı burchidir»¹⁶.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarning, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa, mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko'pgina yo'nalishlari bo'yicha qat'iy meyorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko'pgina munozarali masalalar o'zining nazariy asosiga qo'yildi.

Til taraqqiyotidagi zarurat, adabiy til imkoniyatlari va adabiy norma ongli aralashuvni talab etadi. Har qanday shoshma-shosharlik, termin yaratuvchilik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini mustaqillik yillarida matbuotda so'z va terminlarni qo'llash aniq ko'rsatib turibdi. O'zbek tili taraqqiyotining ana shu qisqa davridagi holat katta saboq bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demakki shu tilda so'lashuvchi millatning ma'naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so'nishiga, ma'naviyatning qashshoqlashishiga olib keladi.

¹⁶ Маматов А.Э. Ёш авлоднинг нуткий маданиятини тарбиялаш хусусида // Давлат тили ҳақидаги қонунни амалга оширишнинг долзарб муаммолари мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси тезислари. - Навоий, 1993, 7-б.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi hisoblanadi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyot, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va televideniye kuzatib borishi orqali hamda tinimsiz mustaqil shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi.

Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Adabiy til madaniyatini egallashda tilga bo'lgan etibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim rol o'ynaydi. Adabiy til va uning meyorlarini shunchaki qiziqish yoki u bilan nomigagina shug'ullanishi orqali egallab bo'lmaydi.

Insonning nutq faoliyati uch ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bular - so'zlash, mutolaa qilish va eshitish. Hozirgi zamon o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, orfoyepik hamda orfografik, imloviy meyorlarining nisbatan mukammal shakllanganligi o'zbek tili madaniyatining ulkan yutug'idir.

O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov bu kabi holatlarni keskin tanqid qiladi: «OAVda til masalalarida yo'l qo'yilayotgan bunday bepisandlikka, savodsizlikka, loqaydlikka mutlaqo toqat qilib bo'lmaydi. Negaki, yo'l harakatini boshqarib turadigan Yo'l harakati xavfsizligi bor, ammo ona tilimiz qoidalarining muttasil va bekamu ko'st bajarilishini taftish qiladigan Davlat tili nazorati yo'q. Til borasidagi o'zboshimchaliklari va tartibbuzarliklari uchun javobgarlikka tortish Jinoyat majmuasida nazarda tutilmagan. Shuning uchun til boyligini asrash, uning qonun-qoidalariga qat'iy amal qilishni nazorat etish, tilimizning beqiyos go'zalliklarini namoyish qilish to'laligicha OAV zimmasiga tushadigan mas'uliyatdir. Bir vaqtlar ular bu mas'uliyatni bajarishga, birinchi navbatda, o'zlarining tillari go'zal, ma'nodor va benuqson bo'lishiga juda katta etibor berar

edilar, har haftada maxsus shu masalaga bag'ishlangan ishlab chiqarish majlislari o'tkazib turishardi, tilshunoslar va boshqa nufuzli odamlarni taklif qilib, ular yordamida o'z faoliyatlarini tanqidiy taftishdan o'tkazar edilar. Nega bugungi kunda bu ishlar .qilinmay qo'yildi? Axir, bugun o'zbek tili davlat tili bo'lganiga salkam o'n besh yil bo'layotgan bir pallada uning rivoji uchun kurash hammamiz uchun farz-ku!»¹⁷.

O'zbek adabiy tili meyorlarini puxta egallash, yuqori savodxonlik, nutq madaniyati va mahoratiga erishish,notiqlik sifatlarini to'la o'zida namoyon etish uchun har bir o'quvchi yoki talaba, mutaxassis, avvalo, nazariy bilimga ega bo'lishi va uni amaliyotda qo'llay olishi kerak. Buning uchun badiiy adabiyot va gazeta materiallarini ko'proq mutolaa qilishi, og'zaki va yozma nutq mahoratini egallash uchun ijodiy qobiliyatini o'stirib borishi lozim. Bu sohada, ayniqsa, gazetalarda bosilgan yuqori savodxonlik, nutq mahorati, notiqlik, til ma'naviyati va nutq madaniyati va nutq madaniyati haqidagi maqolalarning o'rni beqiyos ekanligini unutmashlik zarur.

¹⁷ Шарафиддинов. Она тилим – ифтихорим, инжа ганжинам. // «Ўзбекистон овози» газ. 2003. 11 декабрь.

1. SAVODXONLIK DARAJASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID MATERIALLAR TADQIQI

Ma'lumki, «Til madaniyati, deganda, ana shu tildagi ifoda vositalarining ongli aralashish natijasida, hamma tushunadigan va qo'llay oladigan darajaga keltirilganligi, ma'lum davr uchun mosligi, ishlatilish qonun-qoidolari va meyorlarining qay darajada aniq va mukammal ishlanganligi, sayqal topganligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, til madaniyati deganda, til birliklari (ajdodlar tomonidan ishlatishga to'la yaroqli holga keltirib qo'yilgan ifoda vositalari: tovushlar, so'zlar, qo'shimchalar, qoliplar kabilar) va ular imkoniyatlari taraqqiyotining, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda shu munosabatlarni ta'minlovchi qoidalarning ishlanish darajasi tushuniladi».

«Qaysi tilda bu qonun-qoidalar past darajada ishlangan bo'lsa, o'sha tilni madaniy til sifatida baholab bo'lmaydi. Til madaniyatining pastligi esa, oxir-oqibatda shu til vakillari nutq madaniyatining ham past bo'lishi uchun sabab bo'ladi»¹⁸.

Yuqoridagilarga asoslanib, o'zbek adabiy tilining bugungi kunda sayqal topgan, mukammal qonun-qoidolari bo'lgan, yuqori madaniyatga ega til sifatidagi o'rni sodda va oddiy tushuntirilishi, eng muhimi, o'qituvchi, talaba va o'quvchi nutqi uchun asos **savodxonlik**, ya'ni imlo qoidalarini mukammal bilish zarurligi mazkur kursni o'qitish jarayonida talabalar ongiga singdirilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni ijrosini ta'minlash bo'yicha 1989 yildan hozirgacha juda katta ishlar amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Avvalo, o'zbek tilining lotin yozuvi asosidagi imlo qoidolari

¹⁸ Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари (оммабоп қўлланма). 1-қисм. – Тошкент, 2006, 8-б.

ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida ana shu alifbo asosida bilim berilmoqda. Lotin yozuvida chop etilayotgan kitob va darsliklar, o'quv qo'llanmalari, gazeta-jurnallar, reklama va e'lonlar, davlat hujjatlari hozirgi vaqtda bu imlo madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Sh.Abdullayeva o'z o'qituvchilik tajribasidan kelib chiqib, o'quvchilar savodxonligiga ko'chalardagi yozuvlar va peshlavhalardagi holatlar salbiy ta'sir qilayotganligini achinib yozadi. Turli reklama yozuvlari va peshlavhalardagi imloviy, hatto uslubiy xatolar o'quvchilarni ba'zan chalg'itmoqda¹⁹. Demak, savodxonlik uchun nafaqat o'qituvchilarning sabog'i, balki turli ko'rgazmali vositalar, jumladan, peshlavhalar va reklamalar ham bevosta ta'sir ko'rsatadi.

Savodli yozish, og'zaki nutqni o'stirish ona tili va adabiyot o'qituvchining vazifasi, deb hisoblaydigan boshqa fan o'qituvchilari ko'plab topiladi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, ona tiliga munosabat va hurmat, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish millatning har bir jonkuyar farzandi uchun ham qarz, ham farzdir. Ayniqsa, bu sohada o'qituvchilar, ziyolilarning o'рни va ularning mas'uliyatni chuqur anglashi juda muhimdir.

Boshqacha aytganda, "Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy

¹⁹ Қаранг: Абдуллаева Ш. Имлодаги хатолар. // Туркистон, 2007 йил 5 декабрь.

madaniyatni o`rgatish, chiroyli so`z zavqini o`stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko`rgazmali qurol o`qituvchining o`zidir”²⁰, uning nutqidir, nutq ma’naviyatidir.

Ma’lumki, o`zbek adabiy tili meyorining quyidagi ko`rinishlari mavjud: Umumiy tarzda: yozma adabiy til meyori va og’zaki adabiy til meyori. Aniq tarzda: imlo, talaffuz, leksik-frazeologik, grammatik va uslubiy meyorlar.

Hozirgi o`zbek tilida 31 ta tovush - fonema mavjud bo`lib, ularni ifodalashga xizmat qiladigan rus grafikasiga asoslangan belgilar soni 35 ta. Ana shu tovushlar tizimi va ularning harfiy ifodasiga ega bo`lgan o`zbek tili bugungi kunga qadar 1956 yil 4 aprelda tasdiqlangan va kuchga kiritilgan «O`zbek orfografiyasining asosiy qoidalari»ga binoan ish ko`rib kelmoqda. Binobarin, o`zbek tilining imloviy meyorlari hozirgacha ana shu qoidalarga muvofiq amal qilmoqda va bu jarayon O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O`zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonunining yangi tahririni amalga kiritish tartibi to`g`risida» 1995 yil 21 dekabrda qaroriga asosan 2005 yilgacha davom etdi.

Undan keyin esa O`zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini hayotga joriy qilish to`g`risida»gi hamda 1995 yil 6 maydagi «Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosiga qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi qonunlariga asosan ish ko`rilmoqda.

Respublikamizda ta’limning barcha tizimlarida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustdagi «O`zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qabul qilgan qarori asosida faoliyat yuritilmoqda.

An’anaviy imlo meyorlarini saqlab qolgan holda, lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek alifbosi bilan ish ko`radigan imlo ham o`z meyoriy qoidalariga ega

²⁰ Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент, 1999, 52-б.

va bu meyorlar yuqorida tilga olingan hujjatda o'z ifodasini topgan. Undagi qoidalarga amal qilish tilimizdan foydalanuvchilar uchun bundan keyin majburiy sanaladi va shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida o'zbek tilining orfografik meyori yo'lga qo'yiladi.

Ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi uning hayotiylik, yashash shart-sharoitlarini belgilab berdi. Rivojlanishi va istiqboli qonun yo'li bilan kafolatlandi.

Ma'lum bo'ladiki, og'zaki nutqning to'laligicha adabiy holatga keltirilishini ta'minlash talaffuz jarayonini meyorlashtirish bilan bog'liq. Og'zaki nutq ishlatiladigan qaysi soha va yo'nalish bo'lmasin, turli uslublardagi vazifasini belgilash bo'lmasin, barcha o'rinlarda ham til birliklarini bir meyorga keltirib qo'llash masalasi birinchi o'rinda turadi.

Orfoepik meyorlarga rioya qilmaslik nutqimiz madaniyatida jiddiy nuqsonlardan biri bo'lib qolmoqda. Tilshunoslarimiz zahmatlari tufayli o'zbek tilidagi birliklarining deyarlik barchasidagi meyoriy ko'rinishlar ommaga turli qo'llanmalar, lug'atlar shaklida tavsiya etildi. Yangi imlo qoidalariga o'tishimiz munosabati bilan bunday ishlar davom ettirilmoqda. Nafaqat filolog olimlar, balki maorifimiz jonkuyarlari, o'z ona tiliga chuqur hurmat bilan qaraydigan barcha ziyolilarimiz bu meyorlarning buzilishiga e'tiroz, tuzatish va tavsiyalar tarzida chiqishlar qilib turishibdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, talaffuz meyorlarini buzish, til madaniyatiga e'tiborsizlik hamon davom etmoqda. Bu kamchiliklar hatto radio, ayniqsa, televideniye eshittirishlarida ham seziladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustdagi «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qabul qilgan qarori asosida faoliyat yuritilmoqda. Bu sohada yutuqlar kam emas. Lekin mavjud imlo qoidalariga to'la rioya etmaslik holatlariga ham yo'l qo'yilmoqda. Masalan, gazetalarda da imlo qoidalari quyidagi hollarda buzilmoqda: 1. Qo'shma so'zlarni turlicha qo'llash. 2. Yuklamalarni ishlatishda har xillik. 3. Ruscha-baynalmilal

soʻzlarni qoʻllashda turlichalik. 4. Bosh harflar imlosidagi chalkashlik (turli tashkilotlar, vazirliklarning nomlarini yozishdagi har xillik). 5. Ayirish va yumshatish belgilarini ishlatishdagi har xillik.

A.Abdusaidov tadqiqotlarida, yangi imlo qoidalari mavjud boʻlishiga qaramasdan, unga amal qilish talab darajasida emasligi, ayrim gazetalar va jurnallarning tahririyatlari bu sohada eʼtiborsizlik qilishayotganligi misollar asosida koʻrsatilgan²¹. Misollar: 1. Soʻzlarni turlicha yozish (hatto bir sahifada), turli korxona, muassasa, vazirlik nomlarini har xil ifodalash kabi holatlar uchraydi. M.: Undan soʻng Xorazm viloyatida «Davlat ramzlari toʻgʻrisida»gi *Qonun* ijrosi bilan tanishadi. Ayni paytda Madaniyat ishlari vazirligi bilan hamkorlikda Oʻzbekiston Respublikasining «Kutubxonachilik faoliyati toʻgʻrisida»gi *qonuni* loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Shu kunlarda deputatlar guruhimiz Qashqadaryo viloyatida «Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida»gi *Qonun* ijrosini oʻrganishmoqda (XS.,20.11.01). Bir materialda *qonun* soʻzini ikki xil yozish eʼtiborni talab qiladi.

Yaqinda esa *universitet xiyoboni* hududida chet ellik sayyohlarga moʻljallangan, xalqaro talablarga javob beradigan 4 yulduzli «Prezident-Palas» mehmonxonasi qurilishi boshlandi (Z.,20.11.01). *Universitet xiyoboni* bosh harf bilan yozilishi lozim.

...1999 yil ikki mamlakat *prezidentlari* Toshkentda uchrashib,... ikki mamlakat *Prezidentlarining*... (XS.,20.11.01). Bunday ikki xil qoʻllash holatini barcha gazetalarda uchratish mumkin.

- Himmati baland kishilar omon boʻlsin, - deydi mamnun holda Usmonali aka, - shular bor ekan, ezgulik deb atalmish noyob *hislat* tup qoʻyib, palak

²¹ Абдусайдов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. - Самарқанд, 2004, 73-88-б.

otaveradi (XS.,25.10.01). Bir ozdan so`ng qosh-qabog'i o'yildi (O`O.,23.12.99). Sayoq yurgan tayoq yeydi, deganlaridek insofga kelmagan Feruza barvaqt sarg'aygan kuz yaproqlaridek *hazonga* aylandi (O`O.,25.12.97). Bunday fazilatlar ruhiga singib ketgan xalqimiz hamisha *sahiy*, qo`li ochiq (O`O.,16.12.97). Jumlar mazmunli, ravon tuzilgan, lekin ulardagi imlo xatolari e'tiborni tortadi.

O'zbek tili bir muncha mukammal grammatik qoidalarga va grammatik normalarga ega bo'lishiga qaramasdan, bu sohada gazetalarda ko'plab kamchiliklar yuz bermoqda. Grammatik vositalarni to'g'ri qo'llamaslik oqibatida gazeta materiallarining pishiq-puxtaligi, ravonligi, mazmunliligi va ixchamligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir qilinmoqda. a) Gazeta tilida morfologik meyorning buzilishi quyidagi hollarda sodir bo'lgan: 1. Kelishik shakllarini to'g'ri ishlata olmaslik. Ularni farqlamaslik, belgili va belgisiz holatlaridan noto'g'ri foydalanish, kelishiklarning o'zaro sinonimiyasidan to'g'ri foydalanmaslik, kelishiklarni qo'llashda shevaning ta'siri. 2. So'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash. 3. Fel nisbatlari farqlamaslik. 4. Affiksial pleonazm. Ayrim jiddiy holatlarni ko'zdan kechiraylik.

1. Ayrim so'z yasovchi qo'shimchalarni ishlatishda qoidalarga e'tibor biroz pastligi sezilmoqda. M.: Katta-katta janjallarni bartaraf qilishda, tunda sandiraqalaydigan *bekorchixo`jalarni* yo'lga solishdi (XS., 25.10.01). Bu so'zdagi -*chi* qo'shimchasi ortiqcha.

2. Tushum va qaratqich kelishiklari qo'shimchalarini ishlatishda kamchiliklar juda ko'plab uchraydi. M.:Xayhot, kutilmagan fojia *Georgiyni* olamdan erta ko'z yumishiga sabab bo'ldi (O`O., 23.12.99). Shulardan biri oliy *ta'limni* bakalavr va magistr bosqichlariga bo'linishidir. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda har ikkala *darajani* mehnat faoliyati doirasi maxsus qonunlar bilan belgilab qo'yilgan, ...xalqimiz asrlar osha e'zozlab kelayotgan milliy urf-odatlar, an'analarimiz, *ularni* yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida ma'ruza qildilar.

...boquvchisining yo`qotgan, kam ta'minlangan oilalarga yanada ko`proq moddiy yordam ko`rsatiladi (Z.,20.11.01). Gazetaning bir sonidan olingan ushbu misollarda qaratqich kelishigi o`rnida tushum, oxirgisida tushum o`rnida qaratqich kelishigi qo`shimchasi noto`g`ri ishlatilgan. Ushbu *fanning* puxta va mukammal o`qitishda darsdan tashqari tashkil etilayotgan mashg`ulotlar, ko`rik-tanlovlar, uchrashuvlarning ahamiyati ham katta bo`lmoqda (XS.,8.11.02). Misolda tushum kelishigi qo`shimchasi o`rnida qaratqich kelishigi qo`shimchasi ishlatilgan. Natijada uslubiy ravonlik hosil bo`lgan.

3. Fel nisbatlarini ishlatishda kamchiliklar ham mavjud. M.: Xo`jalik dasht hududlarni surish uchun 1,2 million so`mga nasos qurib *bitkazildi* (Z.,20.11.01). Felning majhullik nisbati noto`g`ri ishlatilgan, jumlada uslubiy g`alizlik hosil bo`lgan (-il qo`shimchasi ortiqcha).

Ma'lumki, namunaviy nutqqa qo`yiladigan asosiy talab uning grammatik jihatdan to`g`ri bo`lishidir. Bunda gap tuzish qoidalarini yaxshi bilish va ulardan foydalanish, gapda so`z va qo`shimchalar o`rtasidagi munosabatlarning to`g`ri bo`lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo`laklarning bog`lanishiga e'tibor berish, gapda so`zlar tartibiga normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilish muhimdir. Ammo nutqda har doim ham sintaktik normalarga amal qilinmayapti²². Gazeta tilida ham sintaktik normaning buzilish hollarini kuzatish mumkin.

b) Gazeta tilida sintaktik meyor buzilishlari quyidagi hollarda yuz bergan: 1. Gapdagi mantiqiy bog`lanishning buzilishi. 2. Jumla tuzishda so`zlarni tegishli shaklda ishlata olmaslik. 3. Jummalarni ortiqcha cho`zib yuborish va gaplarning bog`lanishidagi mazmuniy uzilishning sodir bo`lishi. 4. Sodda gaplarni sun'iy ravishda qo`shma gap tarkibiga birlashtirish. 5. Gapda so`z tartibiga normal holat

²² Қаранг: Қўнғуров Р., Каримов С., Курбонов Т. Нутқ маданияти асослари. I қисм. 1985,. 39-б.

va inversiya qoidalariga rioya qilmaslik. 6. Jumla tuzishda faqat badiiy uslubga xos elementlardan foydalanish, fikrning aniq ifodalanishiga putur yetkazish.

Tinish belgilarining o'z o'rnida ishlatilishi jumlaning mazmuni, ravonligi, aniqligiga katta ta'sir qiladi. Ularni noo'rin tushirish yoki qo'llash uslubiy noaniqlik va g'alizlikka sabab bo'lishi mumkin. Gazetalarda tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq ayrim kamchiliklar uchraydi. Bunday holatlar, fikrimizcha, juz'iy nuqsonlar emas. Gazeta tilida punktuasion me'yorga rioya qilmaslik hollari quyidagi o'rinlarda yuz bergan: 1. Bog'langan qo'shma gaplarda zidlovchi va qiyoslash munosabatini bildiruvchi bog'lovchilardan so'ng vergul qo'yish (qoida bo'yicha ushbu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi). 2. Uyushiq bo'laklar va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda vergul ishlatmaslik. 3. Ko'chirma gaplarda tinish belgilarini noto'g'ri qo'llash. 4. Undov gaplarda tireni tushirib qoldirish, tire o'rnida defis ishlatish. 5. So'roq, buyruq va undov gaplar oxirida zarur tinish belgisini tushirib qoldirish (mas., sarlavhalarda tinish belgisi qo'yilmagan). 6. Iboralarda qo'shtirnoqni noto'g'ri qo'llash. Misollarni ko'zdan kechiraylik.

1. Gazetalarda modal so'zlar va bog'lovchilar bilan bog'liq holda tinish belgilarini ishlatish qoidalari buzilayapti. M.: Obuna davri *shubhasiz* oson kechmadi (XS.,25.10.01), Ahvol *ayniqsa* Osiyo davlatlarida jiddiy bo'ladi. *Avvalo* shu narsani ta'kidlab o'tish *lozimki* bizning universitet Samarqand hududida magistraturaga eng ko'p talaba qabul qiladigan oliy o'quv yurti hisoblanadi. Bunda *albatta*, har yili Toshkentda o'tkaziladigan xalqaro yarmarkalarning ham o'ni bor. *O'laymanki* kelajakda bu muammolar o'z yechimini topib izga tushib ketadi. (Z., 20.11.01). Ushbu misollarda, ajratilgan o'rinlarda, vergul qo'yish lozimligi to'g'risida imlo qoidasi mavjud. Lekin bu qoidaga deyarli barcha gazetalarda rioya etilmayapti.

Chunki, butun dunyoda e'tirof etilgan meyorlar asnosida o'tadigan saylov demokratiyaning asosiy talablaridan biridir (O'O., 23.12.99), *ya'ni*, bu balo-qazo tag-tomiri bilan yo'qotilishi lozim (XS.,25.10.01). Bog'lovchilardan keyin qo'yilgan vergul ortiqcha.

2. Ushbu misolda tire emas, vergul qo'yish lozim: Uy qushlari sayrashmasa - sovuq uzoq davom etadi (Z., 20.11.01). Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

3. Iborada qo'shtirnoq noto'g'ri ishlatilgan: Tabiiyki, Buba Diop hozircha o'zini «taroziga» solmoqda. Hozir esa ularning o'yinlarini «jilovlaydigan» terma jamoa topilmayapti (XS.,18.06.02).

Gazetalarda mavjud qoidalarga rioya qilmaslik oqibatida barchaga ma'lum bo'lgan hujjatlar imlosida kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Misollar: 1. Matbuot tili konkretlikni, har bir narsani o'z nomi bilan atashni talab etadi. Ayrim holatlarda aniqlikka putur yetayapti yoki chalkashlik holatlari yuz berayapti. M.: Respublikamizda «*Xalq ta'limi to'g'risida*» Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan keyin oliy va o'rta maxsus ta'limni yanada rivojlantirish uchun keng ufqlar ochildi (Z.,20.11.01). Keyingi yillarda «*Ta'lim to'g'risida*»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan bir necha qarorlar qabul qilindi (XS.,1.09.98), Sessiya oralig'ida O'zbekiston Respublikasining «*Ta'lim to'g'risida*»gi (? qonuni) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining Toshkent shahrida bajarilishi o'rganildi (XS.,20.11.01). Shu yerga oydinlik kiritilishi, muhrda firma nomi qaysi xalqaro tillarda ko'rsatilishi «*Til to'g'risida*»gi Qonunimizdan kelib chiqib, aniq belgilab qo'yilishi lozim, deb hisoblayman (XS.,11.12.03). Barchaga ma'lum bo'lgan qonunlar nomini yozishda bir xillikka erishish lozimligi barchaga ayon.

Yuqorida asosan imlo qoidalariga rioya etmaslik oqibatida sodir bo'layotgan ayrim kamchiliklar ko'rsatildi. Bunday kamchiliklarga gazeta, radio va

televideniye, reklama va peshlavhalarda ham yo'l qo'yilayotganligi gazetalarda bosilgan maqolalarda tez-tez tilga olinmoqda. Bu kabi xatolarga e'tiborsizlik umumiy savodxonlik va yuqori nutq madaniyatiga erishishda salbiy o'rin tutadi. Bu kamchiliklar orasida, ayniqsa, mavjud imlo qoidalariga e'tiborsizlik ko'payib bormoqda.

Professor Bekmurod Yo'ldoshevning "Globallashuv jarayoni va davlat tili muammolari" sarlavhali maqolasida globallashuv sharoitida davlat tilining mavqeini yanada mustahkamlash, unga e'tiborni oshirish borasida qimmatli fikrlar bildirilgan. Maqolada, jumladan, quyidagilar bayon etilgan: " Bugungi televideniye va radio tili, ayniqsa, reklama tili talab darajasida emas. Birgina misol, yaqinda markaziy televideniyedagi diktorlardan biri televideniye orqali *"terroristlar falon joyga tashrif buyurishdi"*, degan fikrni aytishgacha borib yetdi. Bundan ko'rinadiki, ayrim diktor (suxandon)lar qaysi so'z qay o'rinda ishlatilishi zarurligini tushunib yetmaydi hamda ekranda tillariga erk beradilar. Bu yagona misol emas. Yoki televideniyedagi reklama roliklari orqali «naqadar *lazzatbaxsh, bu faqat rahbarlar uchun*» singari g'aliz tarjima namunalariga har kuni bir necha martadan duch kelish mumkin. Bu esa ona tilimizga hurmatsizlikdan boshqa narsa emas.

Endilikda mamlakatimizda bo'lganidek, Samarqand shahrida ham rus va ingliz tilidagi reklamalar, peshlavhalar soni ko'payib ketdi. Hatto ayrim o'rinlarda ularning o'zbekcha tarjimasi ham berilmayapti. Shahar va tumanlardagi do'konlar, oshxonalar, restoranlar, kafelar, barlarning nomlarini o'qisangiz, o'zingizni O'zbekistonda emas, boshqa bir yurtga borib qolgandek his qilasiz. Masalan, "Minutka" kafesi, "Klassik" magazini, restoran "Napoleon", "Oriyent star" mehmonxonasi, hotel Lix" singari peshlavhalarga shahrimizda tez-tez duch kelamiz. Joy nomlarini qo'yish, reklama lavhalarini, telemarket materiallarini tartibga keltirish kabi masalalar muvofiqlashtirilsa, tegishli mutaxassislar

ishtirokida maxsus hay'at tasdig'idan o'tkazilsa, bu masala o'z-o'zidan ijobiy hal etilgan bo'lardi.

Dunyodagi har bir millat o'z tilining istiqboli uchun doimo g'amxo'rlik qiladi. Jumladan, mamlakatimizda ham Davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek tili ravnaqi uchun har bir ziyoli, ayniqsa til va adabiyot o'qituvchilari mas'uldir"²³.

Tilshunos olim Mardon Boltayev "Yozuvlarimiz shahar husniga yarashliqlimi?" sarlavhali maqolasida "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilinganligining 21 yilligi va "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilinganiga 17 yil to'lishi munosabati bilan fikr yuritib, shunday yozadi: "Viloyatimiz tumanlarida mazkur qonunlar ijrosini ta'minlash borasida qisman kamchiliklar bo'lsada, ancha-muncha ishlar amalga oshirilayotir. Ammo Samarqand shahrida olib borilayotgan ishlarning hammasini ham tahsinga sazovor, deb bo'lmaydi.

Shahar markazidagi ko'rkam va doimo gavjum Amir Temur ko'chasining Abdurahmon Jomiy ko'chasidan Mahmud Qoshg'ariy ko'chasigacha (markaziy hammomdan elektr tarmoqlari korxonasigacha) bo'lgan kichik qismidagi do'konlar, yemakxonalar, xizmat ko'rsatish korxonalarining nomlarini, ular atrofidagi yozuvlarni ko'zdan kechirganimizda qiziq bir holatning guvohi bo'ldik. Shu kichik hududda o'ttizdan ortiq nomdagi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu yaxshi, albatta. Chunki ularning asosiy maqsadi aholining talab va ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Ularning xizmat ko'rsatish borasidagi faoliyatiga hech qanday e'tirozimiz yo'q. Ammo ularning nomlari, reklama yozuvlari qiyoslanganda, shu hududdagi korxonalarning atigi ikkitasigina (Temurxon va Rayhon) sharqona, o'zbekona nomlangan bo'lib, uning ham bittasi imloviy xato bilan yozilganligi, qolganlarining nomlari va barcha yozuvlari ajnabiy tillardaligi kishi ta'bini xira

²³ Йўлдошев Б. Глобаллашув жараёни ва давлат тили муаммолари. // «Самарқанд» газетаси, 2011 йил 22 октябрь.

qiladi. Ularning ayrimlarini qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha e'tiboringizga havola qilamiz: *SALVATINI, Prod-Market, SLIMBOR G'or myep, Wemma G'or myep Rarfum, Golden ladu, G'rgotyelli cafe, INTERNET Spayder, Trans-sputnik Aviakassa, Disney dunyosi, Golden tays* va hokazo.

Undan tashqari bu obyektlarning kirish eshiklariga "kirish", "chiqish", "ochiq", "yopiq", "marhamat", "rahmat", "minnatdormiz", "xush kelibsiz", "xushvaqt bo'ling", "xizmat qilganimizdan mamnunmiz", "yana kelib turing" kabi o'zbekona lutflar o'rniga tomdan tarasha tushgandek "*Orep*", "*Otkryto*", "*Zakryto*", "*Rejim raboty!*", "*YoPIQ*" deb ajnabiy tildagi mulozamat so'zlari yozilganki, o'qib ensangiz qotadi va beixtiyor qayerga kelib qoldim ekan, deb bir muddat o'ylanib ham qolasiz. Bunday holat davlat tiliga qanday munosabatda ekanligimizni ko'rsatmaydimi? Bu qonunlarimizda belgilangan talablarga zid emasmi?

Bugun Samarqand sayyohlar bir ko'rishni orzu qiladigan tarixiy shaharga aylanmoqda. Uning obidalarini tomosha qilish uchun nafaqat respublikamiz viloyatlaridan, balki dunyoning turli burchaklaridan ming-minglab sayyohlar tashrif buyuradigan maskan sifatida e'tirof etilayapti. Tarixiy inshootlar oldidagi peshtoq yozuvlaridan tortib, ularning o'tmishi haqidagi ko'rgazmali yozuvlarning ham bu borada ahamiyati juda katta. Ziyoratgohlar oldiga qo'yilgan yozuvlarning lotin qismida imloviy, ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'yilayotganligi ham achinarli hol.

Keyingi bir yil ichida ko'hna va hamisha navqiron shahrimiz qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Ko'chalar kengaytirildi, xiyobon va maydonlar ko'paytirildi, shinam xonadonlar, ko'rkam do'konlar, yemakxonalar, muhtasham mehmonxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari qad rostladi. Bir so'z bilan aytganda, Samarqand shahri go'zal qiyofa kasb etmoqda. Lekin har to'kisda bir ayb, deganlaridek yangi alifbo va imloda tayyorlanayotgan ayrim peshtoq

yozuvlari, ko`rsatkich va ko`rgazmali vositalardan hali ham ko`nglimiz to`lmayapti. Misol tariqasida yangi tipda qurilgan binolar peshtoqlaridagi shunday yozuvlarni o`z holicha keltiramiz: *Yelektr jixozlari, Uy jixozlari, Ozig ovgat, Ozik-ovkat dukoni, Sut va sut maxsulotlari, Luchshiye kalyani goroda, Kalyani lyubogo vkusa* va boshqalar. Nahotki, bu imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolar bilan yoki boshqa tillarda yozilgan peshtoq yozuvlari, ko`rsatkich va ko`rgazmali vositalarni mutaxassislar nazaridan o`tkazib olish shunchalar qiyin bo`lsa?

Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi va Pochta ko`chalaridagi barcha xizmat ko`rsatish shoxobchalari, do`konlar, oshxona va restoranlar o`z hududlariga qator qilib ko`chma reklama taxtalarini chiqarib qo`yishgan. Agar ulardagi yozuvlar davlat tili va yozuvida bo`lganida xech kim xafa bo`lmasdi. Afsuski, bu yozuvlarning ham 99 foizi ajnabiy tillarda, qolgan bir foizigina qisman xatoliklar bilan bo`lsada, o`zbekcha yozilgan, xolos. Ularni o`qib, kulishni ham, yig`lashni ham bilmaysan kishi.

Imlo qoidalarida belgilangan talablar faqat o`qituvchilar, o`quvchilar va talabalar uchungina chiqarilgan emas. Unga barcha rioya qilishi shart”²⁴.

Savodxonlikning yuqori darajasiga erishish imlo qoidalarga to`la rioya etish bilan belgilanadi. Ko`plab maqolalarda imlo qoidalarining u yoki bu bandiga rioya etilmayotganligi tanqid qilingan. Gazetalarda bosilgan maqolalarni ko`zdan kechiraylik:

A.Abdusaidovning “Reklama tili aniq va tiniq bo`lsin. Lekin...” sarlavhali maqolasi<sup>25</sup>da reklamalarda imlo qoidalari buzilayotganligi misollar asosida ko`rsatilgan. Maqolada quyidagicha fikrlar uchraydi: “Yana bir ko`p tirajli

²⁴ Болтаев М. Ёзувларимиз шаҳар хуснига ярашиқликми? // «Самарқанд» газетаси, 2011 йил 21 октябрь.

²⁵ Абдусайдов А. Реклама тили аниқ ва тиниқ бўлсин. Лекин....// «Milliy tiklanish» газетаси, 2011 йил 5 январь, 1 (114)-сон, 1-, 5-бетлар.

gazetada bosilgan «FAN» o`quv-tayyorlov markazi to`g`risidagi reklama e`lonidagi matn savodxonlik darajasini oshirayotgan abituriyentlar, ya`ni o`quvchilar diqqatiga havola etiladi. Unda ko`rsatilgan oliy o`quv yurtlarining nomi turlicha yozilganligi va imlo qoidalariga mos emasligi bilan o`quvchini chalg`itadi. Qiyoslang: ***Toshken Yuridik instituti - Toshkent moliya instituti - Texnika universiteti - barcha tibbiyot oliygohlari***. Bunday holatda ***Toshkent moliya instituti*** varianti shaklida ishlatish to`g`ri. ***Oliygo`h*** so`zini ***institut*** va ***universitet*** o`rnida qo`llash noo`rinligi tadqiqotchilar tomonidan bir necha bor qayd etilgan.

«Sug`diyona» gazetasida bosilgan «Aziza-Ziyo» orzular ro`yobi» reklamasi va xuddi shu reklamaning «Darakchi» gazetasida nashr etilgan matnlari solishtirilganda, matndagi ikki xillikni ko`rish mumkin. Solishtirinnig: Sug`diyona»da: ***Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent Farmasevtika instituti mini guruh***. «Darakchi»da: ***Toshkentt tibbiyot akademiyasi, Toshkent farmasevtika instituti, kichik guruh***. Demak, reklamaning matni bir xil bo`lsa-da, uni nashr etishda «Sug`diyona» gazetasi tahririyati e`tiborsizlik qilgan va xatolar bilan bosgan. «Darakchi»da esa imlo va so`z qo`llashdagi kamchiliklar bartaraf etilib, reklama nashr qilingan.

Ushbu qiyoslashlardan ham ma`lumki, reklama matnini chop etishda tahririyat bilan reklama beruvchining hamkorligi va tahririyat xodimlarining tildan foydalanishdagi e`tibori zarur”.

Yuqori savodxonlikka erishish uchun o`quv manbalari, ya`ni zamonaviy darslik va qo`llanmalar juda zarur. Bu kabi masalalar ham respublika gazetalarida bosilgan maqolalarda o`z aksini topgan. A.Abduaidovning “O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati yoki yangi fanlarni o`qitish davr talabidir” sarlavhali maqolasida²⁶ aynan shu muammo ko`rsatilib, zamonaviy darsliklar qatorida savodxonlikni

²⁶ Абдусайдов А. Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти ёки янги фанларни ўқитиш давр талабидир. // «Milliy tiklanish» газетаси, 2011 йил 27 апрель, 16(129)-сон, 5-бет.

oshirish uchun mashqlar to'plamlarining o'zni kattaligi tilga olinib, muallif shunday yozadi: "O'quv adabiyotlari orasida mashqlar to'plamlarining o'zni ham muhim. Lekin bu xildagi adabiyotlar yaratishga e'tibor ancha pasaydi. Asosiy sabab bunday material-larning qisman o'quv qo'llanmasi yoki darslik tarkibiga kiritilayotganligi bo'lsa, ikkinchidan, mashqlar to'plamlarini yaratish o'ziga xos murakkabliklarga egaligidir. Mashqlar to'plamlarini yaratishda chet tillar sohasida tayyorlanayotgan bu xildagi adabiyotlardan namuna olish ham mumkin.

Mavjud o'quv adabiyotlaridagi bir xillikka barham berishning asosiy yo'llaridan biri tanlov asosida, mablag' bilan ta'minlash sharti bilan muvofiqlashtirilgan holda o'quv adabiyoti yaratishni tashkil etish lozim. Yakka mualliflar yoki tuzuvchi emas, balki jamoa asosida o'quv adabiyoti yaratish, uni tahrir hay'ati ko'rigidan o'tkazib, materiallarni yaxlitlashtirib, umumlashtirib nashr etishni ta'minlash zarur.

Ta'lim jarayonining sifati va samaradorligining yuqoriligi darslik, qo'llanma va uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy darsliklar davlat ta'lim standartlari talablari asosida yaratilmoqda. Hozirgi kunda mutaxassislik fanlaridan davr talabi asosida yaratilgan puxta o'quv adabiyotlari o'quvchilar va talabalar ehtiyojini qondirmokda".

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni ijrosini ta'minlashda imlo qoidalariga rioya etish muhimligi turli anjumanlarda alohida ta'kidlanib, gazetalarda turli hisoblarda ham o'z aksini topmoqda. Masalan, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashi va partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bilan hamkorlikda 2011 yil 17 oktyabrda "Til, taraqqiyot, ma'naviyat" mavzusida davra suhbatini o'tkazgan edi. Mazkur tadbir haqida "Xalqimizning ma'naviy boyligi, milliy qadriyati"²⁷ sarlavhali hisobotda, jumladan, quyidagilar yozilgan: "O'zbek

²⁷ Халқимизнинг маънавий бойлиги, миллий қадрияти. // «Milliy tiklanish» газетаси, 2011 йил 19 октябрь, 41(154)-сон, 1-, 4-бетлар.

tili betakror va keng imkoniyatlarga ega ekanligini shariat sultoni Alisher Navoiy asarlaridan bilish mumkin,- dedi O`zMTDPning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi rahbari U.Muhammadiyev. - O`zbek tilining mustahkamlanishi, rivojlanishi va yanada taraqqiy etishini ta`minlash, yosh avlod qalbida uning umummilliy qadriyat, bebaho ma`naviy merosimiz ekanligini tushuntirish, targ`ib etish, Vatanga muhabbat, yurtimizda kechayotgan buyuk o`zgarishlarga daxldorlik tuyg`ularini yanada kuchaytirishni partiya o`zining ustuvor vazifalaridan, deb biladi.

Shuni ta`kidlash joizki, istiqlol yillarida o`zbek tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilangani, tilimizning imkoniyatlaridan keng foydalanish, xalqimizning urf-odat va an`analarini tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Yurtimizda davlat tilini o`rgatish va o`qitish bepul amalga oshirilmokda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklarning hujjatlari, korxona, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kytob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida olib borilmoqda.

Tadbirda so`z olganlar davlat tilida imlo qoida va normalariga rioya etilishi masalalariga alohida e`tibor qaratdi. Xususan, ko`chalardagi e`lon, bekatlardagi yozuvlar, joy nomlari va reklama vositasiga kirmaydigan boshqa turdagi tashqi yozuvlar, afsuski, ayrim imloviy-orfografik xatolar bilan qayd etilganligidan ko`z yumib bo`lmaydi. Shunday ekan, adabiy tilning grammatik va ilmiy qoidalarini chuqur o`rganish, amaliyotga tatbiq etishni keng targ`ib qilish, barcha ta`lim muassasalarida o`zbek tili qoidalarini o`zlash-tirish bo`yicha mas`uliyatni oshirish maqsadga muvofiq ekanligi ta`kidlandi.

Partiyaning faollari, barcha darajadagi tashkilotlari va mahalliy kengashlaridagi deputatlari joylarda o`tkazilayotgan tadbirlarda "Davlat tili haqida"gi va "Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida"gi O`zbekiston

Respublikasi Qonunlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan joylarda, muassasalar, tashkilotlarda, umuman keng jamoatchilik orasida tushuntirish, targ'ib qilish ishlarini muntazam olib borish hamda milliy qadriyatimiz hisoblangan ona tilimiz normalariga amal qilishga ko'maklashish xususida chora-tadbirlarni belgilab oldilar”.

Dastlabki kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, yuqori savodxonlikni targ'ib etuvchi, imlo qoidalariga rioya etilishi tahlil qilib berilgan materiallar, kamchiliklar va ularni bartaraf etishga ko'maklashuvchi tavsiyalar berilgan maqolalar nisbatan oz bosilgan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, bir paytlar gazeta va jurnallarda “Til sandig'i”, “Til xazinası”, “Imloga e'tibor”, “To'g'ri yozing!” kabi ruknlar ostida amaliy tavsiyalari bilan turkum kichik materiallar muntazam bosilgan ekan. Bugungi kun talabi ham yuqori savodxonlikni targ'ib etuvchi materiallarni ko'proq nashr etishdan iborat, deb hisoblaymiz.

2. NUTQ MADANIYATI VA MAHORATINI EGALLASHGA OID MATERIALLAR TADQIQI

Ma'lumki, «Nutq - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishdir. Nutqiy jarayon – tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir».

«Madaniy nutq deb, tilning mavjud barcha vositalari va ular imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o'rinli, unumli foydalanilgan holda tuzilgan nutqqa aytiladi. Nutq madaniyati esa ana shu tilni aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir»²⁸.

Bo'gungi kun bo'lajak mutaxassislari uchun yuqori darajadagi **savodxonlik** yetarli emas. Ular **nutq madaniyatini** yuqori darajada egallashlari, o'zbek adabiy tilining meyorlariga qat'iy rioya etishni bilishlari, **og'zaki va yozma nutq mahoratini** oshirishlari, **notiqlik** sifatlarini ma'lum darajada egallagan kishilar bo'lib yetishishlari lozim.

Madaniyat tushunchasi nihoyatda keng bo'lib, u jamiyat hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan deyarli barcha jarayonlarni, yo'nalishlarni, hodisalarni qamrab oladi.

Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o'ta muhim, ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeyligi, ko'rinishi sifatida alohida ahamiyatga

²⁸ Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари (оммабоп қўлланма). 1-қисм. – Тошкент, 2006, 12-, 14-б.

egadir. U fikr almashish, muomala, soʻzlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni oʻz ichiga oladi, ularni “boshqaradi”, ular orqali voqeylikka aylanadi, taʼsir qilish quvvatiga ega boʻladi.

Demak, nutq madaniyati nutq bilan, nutq faoliyati bilan bevosita bogʻliq ekan, til nima, nutq nima degan savollarning kelib chiqishi mutlaqo tabiiy va mantiqiydir.

Til va nutq oʻzaro dialektik bogʻliq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hodisalar boʻlib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy individual noyob quoldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan oʻzaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon boʻlishidir. Nutq bu rasmiy tildir. U keng maʼnoda soʻzlardan, soʻz birikmalari va gaplardan tashkil topadi.

Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjuddir. Bu tushuncha muayyan aloqador tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va maʼnaviyatini belgilovchi etik va estetik kategoriyadir, hodisadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq meʼyorlashga qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy koʻtarish, odamlarga maʼlum “til didi”ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda etadi:

1. Madaniy nutqning, yaʼni nutqiy hodisaning nomi.
2. Madaniy nutq tushunchasi bilan bogʻliq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi.
3. Nutq madaniyati muammolarini oʻrganish bilan shugʻullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani boʻlimining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har biri murakkab ko`rinishlariga, qirralariga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmaslik lozim.

Shunday qilib:

1. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o`ziga xos xususiyatlaridan biri.
2. Nutq madaniyati (til madaniyati) - bu adabiy til yordamlashishidan iborat bo`lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praganing lingvistik maktabi).
3. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, foydali nutq tuza olish mahoratidir.
4. Nutq madaniyati kishilarning o`zaro to`liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir.
5. Nutq madaniyati faqat to`g`ri nutqgina emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlik hamdir.
6. Nutq madaniyati til vositalarida o`rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so`zlash va yoza olish san'atidir.
7. Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir.
8. Milliy o`ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir.

Nutq madaniyati tilni aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo`lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo`lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo`lsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori saviyada bo`ladi. Aksincha bo`lsachi, unda nutq madaniyati ham past saviyada ham bo`lishi muqarrar.

Nutq o'ziga xos xususiyatlarga ega. U ma'lum aloqani ta'minlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon esa suhbatdoshning shaxsi, yoshi, mavqei, bilim darajasi va vaziyat bilan bog'liq.

Nutq madaniyati va mahoratini egallash uchun adabiy til meyorlarini puxta bilish va ularga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Adabiy meyorlar orasida leksik meyor alohida o'rin tutadi. Leksik meyor, deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlarni to'g'ri tanlash va o'rinli ishlatish tushuniladi. Ko'pma'nolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining ko'pligi uning xususiy meyorlarining shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning meyoriy xususiyatlarini bilish ham leksik meyor to'g'risidagi ma'lumotlarimizni kengaytiradi.

O'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud va varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, voobuy, tolko, tolko tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni* kabi so'z va birikmalarining ishlatilishi ham ijobiy hodisa emas. Bu yerda ham meyor buzilgan.

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda ko'plab yangi so'z va iboralar, birikmalar paydo bo'layapti. Bu holatni, asosan, fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, huquq sohalarida, qisman maorif, madaniyat, san'at va badiiy adabiyot sohalarida kuzatamiz. Xalqimiz ularni qanday qabul qilishidan qat'iy nazar, ularni qo'llashdagi har bir holatga munosabat bildirib borilishi, meyor sifatida tavsiya etilayotgan variantlarning nega shunday tarzda ma'qul ko'rilganligi asoslanishi zarur bo'ladi.

So'z tanlash va uni jumlagi mos holda qo'llash materialni tushunarli, mazmunli, aniq, ta'sirchan tarzda gazetxonga yetkazishning muhim shartidir. So'z

qo'llash muammosi ko'pdan buyon tilshunos olimlar, matbuotchilar nazarida bo'lib kelmoqda. A.Abdu Saidov tadqiqotlarida leksik meyorning buzilish hollari gazeta matnlari misolida tahlil etilgan²⁹. Gazeta tilida leksik meyor talablari quyidagi hollarda buzilmoqda: 1. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi to'g'risidagi qonun loyihasining muhokamasi davrida boshlangan harakat ruscha-baynalmilal so'zlarni turkiy, o'zbekcha, fors-tojikcha, arabcha so'zlar bilan almashtirish, yangi so'z va terminlar ijod qilish bilan bog'liq holatning ta'siri hamon davom etmoqda. Gazetalarda so'z va terminlarni qo'llashda turli xillik mavjud. Ko'pchilik tomonidan noto'g'riligi izohlangan, asoslangan, keng istemoldan tushib borayotgan ayrim so'zlar gazetalarda variant sifatida ishlatilmoqda. M., *oliygoh*, *tayyoragoh*, *aeroqo'nalg'a*, *ro'znoma*, *muzofot* kabilarning asosiy dubletlari keng istemolda bo'lishiga qaramay, ular parallel holda gazetalarda uchramoqda. 2. Gazetalarda ayrim tushunarsiz, izohtalab so'zlarning qo'llanilish holatlari uchramoqda. M.: Tahlilchilar uning ildizlarini izlashmoqda, kuzatuvchilar *terakt* oqibatlarini bayon etishayapti (XS.,4.12.02). Ulug'bek rasadxonasida janob Prezident menga *usturlobni* ko'rsatdi (XS.,30.01.98). Faqat nodonligi bois kimlarningdir otgan o'qiga aylanganlar. Manqurt bo'lib, *zombi* bo'lib, odamzot kushandasiga aylanganlar (XS.,20.11.01). Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi targ'ibotda ham bosh tamoyil *pragmatizm* bo'lmog'i kerak (XS.,8.11.02). Biroq bu *charxidunda* o'zligimizni asragan holda taraqqiyot, fan ummoniga hech qachon qurimas daryodek quyilguvchi xalq bo'lib qolamiz (D.,22.11.01). 3. So'zlarni dialektal shaklda ishlatishga e'tibor ba'zan oshib bormoqda. M.: *Huv anavi* o'spirin mast bo'lib oyoqqa turolmay qolgan otasini suyab kelayotgani – o'sha otaga, oilaga, mahallaga, millatimizga isnod

²⁹ Абдусайдов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. - Самарқанд, 2004, 73-90-б.

emasmi? (Z.,13.02.01). Leksik-stilistik norma buzilishlarining' aksariyati ham so`z qo'llash bilan bog'liqdir.

O'zbek tili bir muncha mukammal grammatik qoidalarga va grammatik normalarga ega bo'lishiga qaramasdan, bu sohada gazetalarda ko'plab kamchiliklar yuz bermoqda. Grammatik vositalarni to'g'ri qo'llamaslik oqibatida gazeta materiallarining pishiq-puxtaligi, ravonligi, mazmunlilik va ixchamligiga ma'lum darajada putur yetkazmoqda. Bu holat ham nutq madaniyatini yuqori darajada egallashga salbiy ta'sir etadi. Masalan, tushum va qaratqich kelishiklari qo'shimchalarini ishlatishda kamchiliklar juda ko'plab uchraydi: Shulardan biri oliy *ta'limni* bakalavr va magistr bosqichlariga bo'linishidir. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda har ikkala *darajani* mehnat faoliyati doirasi maxsus qonunlar bilan belgilab qo'yilgan, ...xalqimiz asrlar osha e'zozlab kelayotgan milliy urf-odatlar, an'analarimiz, *ularni* yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida ma'ruza qildilar. ...*boquvchisining* yo'qotgan, kam ta'minlangan oilalarga yanada ko'proq moddiy yordam ko'rsatiladi (Z.,20.11.01).

Ma'lumki, namunaviy nutqqa qo'yiladigan asosiy talab uning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishidir. Bunda gap tuzish qoidalarini yaxshi bilish va ulardan foydalanish, gapda so`z va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri bo'lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo'laklarning bog'lanishiga e'tibor berish, gapda so'zlar tartibiga - normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilish muhimdir. Ammo nutqda har doim ham sintaktik normalarga amal qilinmayapti³⁰. Gazeta tilida ham sintaktik normaning buzilish hollarini kuzatish mumkin.

b) Gazeta tilida sintaktik meyor buzilishlari quyidagi hollarda yuz bergan: 1. Gapdagi mantiqiy bog'lanishning buzilishi. 2. Jumla tuzishda so'zlarni tegishli

³⁰ Қаранг: Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. I қисм. 1985,. 39-б.

shaklda ishlata olmaslik. 3. Jumlalarni ortiqcha cho`zib yuborish va gaplarning bog`lanishidagi mazmuniy uzilishning sodir bo`lishi. 4. Sodda gaplarni sun`iy ravishda qo`shma gap tarkibiga birlashtirish. 5. Gapda so`z tartibiga - normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilmaslik. 6. Jumla tuzishda faqat badiiy uslubga xos elementlardan foydalanish, fikrning aniq ifodalanishiga putur yetkazish. Masalan:

1. Jumlalarni tuzishda so`z tartibi, mazmunga salbiy ta`sir qiluvchi holatlarga yo`l qo`yilmoqda. Ayrim materiallar uslubiy kamchiliklarga to`la, tahrirtalab holda nashr etilmoqda. M.: Kim g`olib bo`lar ekan? *Bu savolga* 28 oktyabr kuni nihoyasiga yetadigan «So`g`diyona-Hamdo`stlik kubogi - 2001» xalqaro musobaqasi natijalari *yakun yasaydi* (XS.,25.10.01). Aslida *Savolga yakun yasalmaydi, javob beriladi*.

Ushbu satrlar qog`ozga tushayotganida Navoiy viloyatidan bir mitti *xushnasim esib qoldi...* (O`AS.,12.12.97). Bu holat ham gazeta tilida ortiqcha ishlatilgan badiiy til elementi sifatida ko`rinadi. Gazeta matnlaridagi bunday xatolar yuqori nutq madaniyatini egallashga salbiy ta`sir etadi.

Ko`plab faktlar tilning boshqa normalarining buzilishi aksariyat holatlarda uslubiy norma bilan bog`liq ekanligini tasdiqlaydi. Masalan: Joriy yilning o`tgan davrida birgina Samarqand shahrining osori-atiqalari 260 *million* daromad keltirdi (Z.,20.11.01). Pul birligi yozilishi lozim. Jumlada mavhumlik yuz bergan.

...viloyat davlat pedagogika instituti rektori Ravshan Rahmonovning xabar qilishicha,... (O`AS.,12. 12.97). Oliy o`quv yurtining nomi to`liq aks etishi lozim: *Navoiy davlat pedagogika instituti* tarzida.

Ma`lumki, matbuot tili o`zbek tilining ajralmas bir tarmog`i, uning ko`zgusi, savodxonlik va nutq madaniyati namunasidir. Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar ba`zi gazetalarda ko`proq, ayrimlarida kamroq uchraydi. Gazeta, radio va televideniye tilidagi adabiy meyor buzilishlari, muomala madaniyatidagi

kamchiliklar, umuman, yuqori nutq madaniyatini targ'ib etish sohasidagi maqolalar gazetalarda ko'plab bosilmoqda.

Ona tiliga hurmat, unig imkoniyatlaridan o'rinli va unumli foydalanish, yuqori nutq madaniyati va mahorati, notiqlik asoslarini targ'ib etishda "Ma'rifat" gazetasining alohida o'rni bor. Ushbu gazeta sahifalarida ko'plab ibratli va foydali materiallar bosilmoqda.

O'zMU turkologiya kafedrasida mudiri Abduroziq Rafiyevning "Qilichtek til bila tuttum jahonni"³¹ sarlavhali maqolasida shunday yozadi: Xorazmiy Muhabbatnoma"sidagi "Qilichtek til bila tutgum jahonni" misralaridagi ma'noni anglashga harakat qilar ekanmiz, milliy tilimizning davlatimiz nomi, bayrog'i, ramzi va madhiyasida mujassamlashgan yangroq ovozi jahonga yoyishga burchli ekanligimizni hech qachon, har qanday vaziyatda unutmasligimiz lozim.

Maktabda fan asoslari ona tilida egallab borilar ekan, bunda har qaysi fan o'qituvchisining so'zi, nutqi muhimdir. O'quvchining so'z boyligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning fikrlash tarzi ham, voqea-hodisalar mohiyatini anglash darajasi ham shunchalik teran bo'lishi aniq. Shuning uchun ham yoshlarda tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya maskanlarining, ota-ona va kattalarning ulkan masuliyati bor. Shu o'rinda buyuk adiblardan birining "O'z tiliga munosabatiga qarab turib, har bir odamning madaniy darajasinigina emas, balki uning fuqarolik qadr-qimmatini ham aniq aytib bersa bo'ladi", degan fikrini eslash kifoya.

Yosh avlodda yangicha ongni shakllantirish, ularning ichki dunyosini boyitish, jamiyatning faol a'zolariga aylantirish uchun so'zning kuchidan yetarli foydalanish yo'llarini izlash zarur. Mustaqillik mohiyatini anglagan har bir fuqaro

³¹ Рафиев А. "Қиличтек тил била туттум жаҳонни". // "Маърифат" газетаси, 2003 йил 22 октябрь.

"Davlat tili haqida"gi qonunning ijrosini to`la amalga oshirishga harakat qilmas ekan, u mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga befarq munosabatda bo`ladi.

Kadrlar tayorlash milliy dasturi va milliy istiqlol g`oyasini amalga oshirishning muhim yo`nalishi o`quv-metodik, ilmiy va badiiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishga qaratilmoqda. Barkamol avlodni, yetuk mutaxassisni tayyorlashga xizmat qiluvchi darslik va qo`llanmalar mazmuniga axloqiy-ma`rifiy, ilmiy-falsafiy qarashlar ona tilida tushunarli va ravon singdirilishi zarur. Aytish joizki, ayrim o`quv adabiyotlarining tili o`zbek tilining adabiy meyorlariga to`la javob bermaydi, bu esa fikrni to`la anglash imkoniyatini cheklaydi. Darslik uchun matn tanlashga yuzaki yondashish oqibatida bayon uslubi galiz, jumalari to`mtoq, milliy qadriyatlarimizga nomuvofiq bo`lgan matnlar kitoblardan o`rin oladi. Shuning uchun ham, ijtimoiy-gumanitar fan darsliklarida har bir matnning milliy istiqlol g`oyasi vazifalarini ro`yobga chiqarish imkoniyatlarini to`laroq ochish maqsadga muvofiqdir. Davlat tilini hurmat qilish, uni puxta zgallash, o`zbek tilida nutq madaniyati talablari darajasida so`zlash va yoza bilish bugungi mutaxassislarning burchidir. Yosh avlodda bolalikdan ona tiliga hurmat va e`zozni shakllantirish orqali o`z Vataniga muhabbat va sadoqat tuyg`ulari o`stiriladi.

Mazkur maqolada ko`tarilgan masalalar nihoyatda dolzarb: milliy til g`ururimiz, ma`naviyat va madaniyat ko`zgusi; o`quvchining ona tiliga bo`lgan munosabatini shakllantirish, g`urur tuyg`usini singdirish, "Davlat tili haqida"gi qonun ijrosini to`la ta`minlash, darsliklarda o`zbek adabiy tili meyorlariga qat`iy amal qilish, ta`lim jarayoni va targ`ibot-tashviqot ishlarida ona tili imkoniyatlarini to`la yuzaga chiqarishga intilish kabilar.

Filologiya fanlari nomzodi Manzar Abdulxayrovning “Soʻz qoidasida intizom...”³² sarlavhali maqolasi Alisher Navoiyning soʻzga eʼtibori, navoiyshunoslik ilmidagi ulkan yutuqlar, soʻz qoʻllash statistikasi, “Majolis un-nafois” asari misolida buyuk bobomizning soʻz qoʻllash mahorati misollar asosida yoritilgan. Maqola tilimizga eʼtiborni hazrat Navoiydan oʻrganishimiz lozimligiga eʼtiborni oshiradi.

Ona tilining boyligi, uning imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishni targʻib etishda tilshunos olimlarning xizmatlari nihoyatda katta. Respublikamiz tilshunos olimlarining faoliyatini yoritish, ularning xizmatlarini baholash va keng oʻquvchilarga yetkazishda ham gazetalarning oʻrni beqiyos. “Maʼrifat” gazetasining 2003 yil 23 oktyabr sonida Toʻra Mirzayev va Mamatqul Joʻrayevning “Soʻz sehrining shaydosi” sarlavhali maqolasi bosilgan. Maqolada oʻzbek filologiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan yirik tilshunos, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy aʼzosi, filologiya fanlari doktori, professor, zahmatkash tadqiqotchi, fidoyi inson Shonazar Shoabdurahmonovning faoliyati, tilshunoslik muammolarini tadqiq etishga bagʻishlangan asarlari keng tahlil qilingan. Maqoladagi koʻplab maʼlumotlar ona tilimiz imkoniyatlari nihoyatda boyligidan, olimlarimiz ularni atroflicha tadqiq etayotganligidan dalolat beradi³³.

“Maʼrifat” gazetasida bosilgan ayrim maqolalarda imkoniyati cheklangan bolalar nutqini oʻstirish muammolari ham yoritilgan. Masalan, Muhammad Shodiyning “Tili ravonning yoʻli ham ravon” sarlavhali maqolasida nutqiy

³² Абдулхайров М. “Сўз қоидасида интизом...”// “Маърифат” газетаси, 2011 йил 15 ноябрь, 8-бет.

³³ Мирзаев Т., Жўраев М. Сўз сеҳрининг шайдоси.// “Маърифат” газетаси, 2003 йил 23 октябрь.

rivojlanishdan orqada qolayotgan bolalar talaffuzini o`stirish, so`z boyligini oshirishga doir qimmatli tavsiyalar berilgan³⁴.

2011 yilda Abduvali Abdusaidovning “Til ma’naviyati va nutq madaniyati. Axborot sohasini isloh qilish” nomli risola - maqolalar to`plami nashr etildi<sup>35</sup>. Kitobda til ma’naviyati va nutq madaniyati, axborot sohasini isloh qilish, «O`zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni ijrosini ta’minlash, o`zbek adabiy tili meyorlariga ommaviy axborot vositalarida rioya etishga doir muallifning «Sosiolingvistika ilmiy tadqiqot laboratoriyasi»da olib borgan ilmiy tadqiqotlarining natijalari asosida yaratgan va asosan, 2011 yilda keng jamoatchilik e’tiborini tortgan, oldingi yillarda Respublika va mahalliy gazetalar («Turkiston», «O`zbekiston adabiyoti va san’ati», «Milliy tiklanish», «Ma’rifat», «Adolat», «Zarafshon», «Samarqand», «Adolat sari» gazetalarida nashr etilgan maqolalari to`plangan.

Risola – ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to`plami «O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati» fanini o`qitish, ommaviy axborot vositalari faoliyati bo`yicha ilmiy izlanishlar olib borish, targ’ibot ishlarini tashkil etish, «Mahorat maktabi» kurslarida mashg’ulotlar olib borishda tilshunos olimlar, filolog o`qituvchilar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar, magistrantlar va talabalarga yordamchi manba sifatida xizmat qilishi mumkinligi qayd etilgan.

Ushbu kitob malakaviy bitiruv ishimiz uchun ham ma’lum materialni beradi. Uning ahamiyati shundaki, kitobdan o`rin olgan gazeta maqolalarida til ma’naviyati, nutq madaniyaga oid qimmatli fikrlar bildirilgan. Ikkinchidan, nashr etilgan gazeta materiallarini osonlik bilan topish mumkin. Quyida mazkur kitobda keltirilgan maqolalardagi fikrlarga to`xtalamiz.

³⁴ Мухаммад Шодий. Тили равоннинг йўли ҳам равон. // “Маърифат” газетаси, 2011 йил 21 октябрь.

³⁵ Абдусaidов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш. Рисола - мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. –98 б.

“Milliy boylik Alisher Navoiy merosi va davlat tili mavqei xususida”³⁶ sarlavhali maqolada shunday soʻzlar bor: Ona tili mamlakatning gʻururi, iftixori hisoblanadi. Millatning madaniyati, maʼnaviyati, ziyolilik darajasi ona tiliga munosabatda ham aniq koʻrinadi. Oʻzbek tili oʻzbek xalqining milliy boyligi sifatida qadim-qadimdan bugungacha ajdodlarimiz tomonidan eʼzozlanib, ardoqlanib, sayqallanib kelmoqda.

Buyuk mutafakkir va shoir, davlat va jamoat arbobi Mir Alisher Navoiyning ona tilimizga munosabatlari, bu tilning nihoyatda boy, goʻzal, takrorlanmas til sifatidagi imkoniyatlarini oʻzlarining shoh asarlari bilan isbotlab berganliklari, ona tilimizning sofliqi, obroʻ-eʼtibori, taʼsir-chanligi, yuqori nutq madaniyati uchun kurashganliklari, millatimizning faxri sifatida, har qancha tahsinga, eʼzozga loyiqdir. Til va nutq madaniyati jamiyat hayotining ajralmas qismi, chunki ona tili muhim tarbiya vositasi sifatida kishilarni buyuk maqsadlar sari yoʻnaltiradi, ruhlantiradi, ezgu orzu-umidlar bilan yashashga undaydi. Soʻzning kuch-qudrati, tilning oʻtkir qurol ekanligini Alisher Navoiy asarlari misolida aniq his etish mumkin”.

“Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni ijrosini toʻla taʼminlash bilan oʻzbek tilining mavqeini yanada oshirish, uning tarixiy sarchashmalaridan foydalanib, goʻzalligini saqlab qolishi va boyligini yanada yorqin namoyon etishi uchun katta imkoniyatlar yaratish mumkin. Eng boy va boqiy sarchashmalardan biri buyuk mutafakkir va ulugʻ shoir, yirik tilshunos olim Alisher Navoiy merosidir.

³⁶ Абдусаидов А. МИЛЛИЙ БОЙЛИК Алишер Навоий мероси ва давлат тили мавқеи хусусида. // «Milliy tiklanish» газетаси, 2011 йил 9 ноябрь, 44 (157)-сон, 1-, 5-бетлар.

«Xazoyin ul-maoniy», «Xamsa», «Muhokamat ul-lugʻatayn», «Mahbub ul-qulub» kabi shoh asarlar ona tilimizdan mohirona foydalanishning oʻziga xos mahorat maktabi vazifasini oʻtaydi”.

“Buyuk bobomiz Navoiy merosi oʻziga xos ijod, mahorat bulogʻidir. Bu buloqdan mahorat bilan foydalanish, uning goʻzalligini yozma va ogʻzaki nutqimizda namoyon eta olish, boy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, nutq madaniyatiga eʼtibor berish asosiy vazifalardandir. Demak, har birimiz yuqori til maʼnaviyati va nutq madaniyatini egallash, savodxon, mahoratli va notiq boʻlish, taʼsirchan yozish va gapira olish uchun Alisher Navoiy merosini chuqur oʻrganishimiz va oʻrgatishimiz zarur. Barkamol avlodning har tomonlama tarbiyasida ham eng muhim manbalardan biri Hazrat Navoiy merosidir. Zero, davlat tili haqidagi qonunning talabi ham shu – oʻzbek tilining mavqeini yanada yuqori koʻtarish bilan uning ham yurtimizda, ham dunyo miqyosidagi obroʻ-eʼtiborini yanada yuksaklikka koʻtarish, ajdodlar anʼanasiga sodiq qolib, uning goʻzalligini keng namoyish qilish, boyitib borish, yuqori nutq madaniyati va mahoratiga erishishdir”.

A.Abdusaidovning “Til maʼnaviyati va nutq talabi. Yoshlar ongini “ommaviy madaniyat” xurujidan saqlaylik”³⁷ sarlavhali maqolasida shunday deyiladi: “Globallashuv jarayoni va til munosabatlari, davlat tilining mavqei, unga eʼtiborni oshirishga taʼsir etuvchi ijobiy va salbiy omillarning xususiyatlari, yoshlar til maʼnaviyati va nutq madaniyatiga "ommaviy madaniyat"ning taʼsirini oʻrganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Yoshlarni "ommaviy madaniyat" taʼsiridan asrash milliy madaniyatimizning sofligi, qadriyatlar, anʼanalar, urf-odatlarimizning davomiyligi, umrboqiyliigi

³⁷ Тил маънавияти ва нутқ талаби. Ёшлар онгини “оммавий маданият” хуружидан сақлайлик. //«Zarafshon» газетаси, 2010 йил 26 август, 107 (21.796), 2-бет.

uchun kurash hamdir. Yoshlar til ma'naviyati va nutq madaniyatiga "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirini quyidagilarda ham ko'rish mumkin:

Hozirgi kunda internet tarmog'idagi materiallarda o'zaro tanishuv, sevgi izhor qilishlar, behayo lavhalar aks etgan materiallarni istagancha uchratish mumkin. Bundan tashqari, turli telekanallar orqali boshqa millatlarning urf-odatlarini aks etgan filmlar ko'plab namoyish qilinmoqda. Ulardagi ijobiy holatlarni qo'llab-quvvatlash mumkin. Lekin turlicha so'kinishlar, baqiriqlarga to'la, behayolikni targ'ib etuvchi filmlarning ko'payib borayotganligi va ularning telekanallarda namoyish etilayotganligi, minidisk sifatida sotilayotganligi tashvishlidir. Ayrim chet el filmlari to'laligicha sheva elementlari bilan tarjima qilinayotganligi, haqoratli so'z va qo'pol jumalarga o'rin berilganligi yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, ularning nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etmoqda.

Respublikamizga behayo rasmlar va ma'lumotlarning chiroyli tasviri hamda tafsiloti bayon qilingan gazeta va jurnallar, turli kitoblar noqonuniy yo'llar orqali olib kirilib, savdosi tashkil etilmoqda. Radio,televideniyeining turli kanallari (asosan, xususiy radio va telestudiyalar, kabel televideniyesi) orqali milliy qadriyatlarimizga mos bo'lmagan tafsilotlar va tasvirlar bilan ba'zi eshittirish va ko'rsatuvlar berilmoqda. Qo'l telefonlari orqali turli behayo tasvir va zo'ravonlikni targ'ib etuvchi o'yinlar hamda ma'lumotlar tarqatilmoqda. Madaniyatsizlik, ochiq-sochiq, yarim yalang'och yurish holatlari turli buyumlarni reklama qilish orqali targ'ib etilmoqda.

Turli sektalar, noqonuniy diniy uyushmalar yoshlarni ekstremizm, terrorizm, missionerlikka moyil, jinoyat qilishdan qaytmaydigan, giyohvandlikka oson beriluvchan qilib tarbiyalashga urinmoqda. Bunda ham til omilidan ustalik bilan foydalanilmoqda. Respublikamiz yoshlarining turli noqonuniy yo'llar bilan boshqa davlatlarga borib, ishlab kelishlari, ularning, ko'pincha, yolg'on tafsilotlar bilan tengdoshlarini qiziqtirayotganligi va o'z domiga tortayotganligi xudbinlik,

ma'naviy qashshoqlik (faqat pul topish niyatida bo'lish), axloqiy buzuvchilik kabi illatlar ayrim yoshlarning tarbiyasini buzmoqda.

"Ommaviy madaniyat"ning bu xildagi salbiy ta'siridan yoshlarni, umuman, keng jamoatchilikni asrashning yo'llaridan biri xolis, haqqoniy axborotni ko'proq, mazmunli, ta'sirchan shakllarda tarqatish, axborotni tahlil qilish, saralash, ijobiy jihatlaridan foydalanish madaniyatini ular ongiga singdirishdan iboratdir".

Yoshlar ongiga yuqori nutq madaniyati talablarini singdirishga doir maqolada berilgan tavsiyalar e'tiborga molikdir: "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni talablarini to'la bajarish bilan davlat tilining mavqeini yanada ko'tarish, yoshlarning til va nutq madaniyatini oshirish mumkin. Buning uchun o'zbek adabiy tili, uning qonun-qoidalarini maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida puxta o'rganishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ta'lim-tarbiya jarayonini savodxonlik, nutq madaniyati, yozma va og'zaki nutq mahorati, notiqlikni egallash tizimi doirasida tashkil qilish, ona tiliga e'zoz ko'rsatish bo'yicha "Ona tilim - jonu dilim", "Notiqlik mahorati", "Nutq madaniyatini egallash - davr talabi", "Tilga e'tibor - elga e'tibor" kabi mavzularda suhbat, uchrashuv, seminarlarni doimiy uyushtirish zarur.

O'qituvchilarning nutq madaniyati va mahoratini tinmay oshirishlariga erishish, ularning tildan foydalanishda namuna sifatidagi fazilatlarni egallashlarini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarida eshittirish, ko'rsatuvlar va materiallarni o'zbek adabiy tili meyorlariga amal qilgan holda, yuqori saviyada tayyorlash, boshlovchilar, jurnalistlarning nutq madaniyatini oshirish, reklamalar tili aniq, mazmunli, davlat tilida bo'lishiga, peshlavhalar davlat tili qonuni talablari asosida yozilishiga erishish lozim.

Respublika, mahalliy gazetalar, radio va televideniye orqali tildan namunali foydalanishni targ'ib qiluvchi eshittirish, ko'rsatuv, maqolalarni muntazam tashkil etish, internetda davlat tilida saytlar, ma'lumotlar bankini ko'paytirish, internet materiallarining savodxonligini ta'minlash ham ijobiy samara beradi.

Prezident Islom Karimov "Yuksak Ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida haqli ravishda qayd etganidek, "...yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur".

A.Abdusaidovning "Yangi avlod darsliklari ta'limning sifati va samaradorligiga xizmat qiladi"³⁸ sarlavhali maqolasida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligining yuqoriligi darslik, qo'llanma va uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan ham belgilanishi ko'rsatilib, O'zbekiston Milliy universitetining olimlari jamoasi tomonidan taniqli tilshunos olimlar professorlar H.Nematov va R.Sayfullayeva mas'ul muharrirligida yaratilgan «Zamonaviy o'zbek tili. 1-jild. Morfologiya» darsligiga taqriz berilgan. Gazetada bunday taqrizlarning bosilishi keng ommani xabardor qilishda va yangi darsliklarning sifatini yanada yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

A.Abdusaidovning "Til ma'naviyati va nutq madaniyati yuksak aql-idrok va tafakur zahirida qudratli kuch bo'la oladi"³⁹ sarlavhali maqolasi shunday boshlanadi: "Inson aqliy tafakkuri va ilmiy salohiyatini yuzaga chiqarishda tilning'

³⁸ Абдусайдов А. Янги авлод дарсликлари таълимнинг сифати ва самарадорлигига хизмат қилади. // «Milliy tiklanish» газетаси, 2011 йил 19 январь, 3 (116)-сон, 5-бет.

³⁹ Абдусайдов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти юксак ақл-идрок ва тафакур замирида қудратли куч бўла олади. // «Adolat» газетаси, 2011 йил 21 январь, 4(810)-сон, 1-, 3-бет.

o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois, til sofligini saqlash, nutq madaniyatiga rioya e`tibortalab masala. Globallashuv jarayoni va til munosabatlarini, davlat tili mavqeini oshirishga ta`sir etuvchi ijobiy va salbiy omillar xususiyatlarini va yoshlarning til ma`naviyati va nutq madaniyatiga «ommaviy madaniyat»ning ta`sirini o`rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Binobarin, yoshlarni «ommaviy madaniyat» ta`siridan asrash — milliy madaniyatimizning sofligi, qadriyatlar, an`analalar, urf-odatlarimizning davomiyligi va umrboqiyiligini ta`minlashning negizi desak, mubolag`a bo`lmaydi”.

Muallifning quyidagi fikrlari ham e`tiborni tortadi: “Globallashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari va internetning roli nihoyatda oshib boraveradi. Chunki globallashuv axborot maydonining kengayishi va undan cheksiz foydalanish imkoniyatini beradi. Radio, televideniye boshlovchilari, jurnalistlar nutqining o`zbek adabiy tili meyorlariga mos bo`lishi — yoshlarning savodxonligi va nutq madaniyatiga, shubhasiz, ijobiy ta`sir qiladi. Radiokanallarda eshittirish olib boruvchilarning nutqida noo`rin ishlatilayotgan ruscha so`z va birikmalar, sheva elementlari davlat tilining ijtimoiy nufuzi, mavqeiga ozmi-ko`pmi salbiy ta`sir etishi tabiiy. Masalan, «*Otvechayu*», «*Uchis, student, uchis*», «*Etib (aytib) qo`yay oldindan*», «*bo`lli, bo`lli*», «*i*» (va), «*inyazda o`qiydigan*», «*osobenno*» kabilar.

Radio boshlovchilarining nutqida sheva elementlarining tez-tez uchrashi ham oddiy holga aylanib bormoqda. Masalan, «*hazillashvopman*», «*o`qiydi-de*», «*o`qishlar ketvottimi*», «*radio tinglavopman*», «*man o`ylovdim*», «*Bizaga bo`lli*» va hokazolar.

«Davlat tili haqida»gi qonun talablariga ko`ra hozirgi globallashuv davrida davlat tilining mavqeyini yanada ko`tarish — davr taqozosi. Buning uchun o`zbek adabiy tili va uning qonun-qoidalarini barcha bosqichdagi ta`lim muassasalarida puxta o`rganish, o`rgatish nihoyatda muhim o`rin tutadi. Shu boiski, ta`lim-tarbiya jaryonida savodxonlik, nutq madaniyati, yozma va og`zaki nutq mahorati, notiqlikni egallash tizimi borasida qator tashkiliy ishlar amalga oshirilishi zaruriyati tug`ilmokda”.

A.Abdusaidovning “Axborot sohasini isloh qilish xolis va ta’sirchan axborot manbaini talab etadi”⁴⁰ sarlavhali maqolasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis palatalari qo`shma majlisida so`zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzuidagi ma’ruzasida ta’kidlangan vazifalarni amalga oshirish dolzarbligi nuqtai nazaridan yozilgan.

Yuqori nutq madaniyatini targ’ib etish jihatidan quyidagi fikrlar e’tiborni tortadi: “OAV, xususan, matbuot ma’naviyatimiz ko`zgusi, ona tilimizning naqadar boyligi, go`zalligi, jozibadorligi, adabiy meyorlarga mosligi, yozma nutqimizning namunaviyligini ko`rsatuvchi manbalardan biridir. Matbuot materiallarining janr talablariga to`la mos bo`lishi, rang-barang janrlarda ifodalanishi, tili va uslubi adabiy til meyorlariga mos bo`lishi lozimligi o`z-o`zidan ayon. Lekin ayrim materiallar tilining adabiy til meyorlariga to`la mos emasligi, imloviy, hatto uslubiy xatolarning tobora ko`payib borayotganligi, axborotni ta’sirchan ifodalash o`rniga oddiy bayonchilik ustun bo`layotganligi ma’lum ma’noda tashvish uyg’otadi. Bunday faktlarning ba’zan ko`plab uchrayotganligi jurnalistlar va tahririyat xodimlarining mas’uliyatini yanada oshirishni taqozo etmokda. Kelgusida soxa xodimlarining tilimizga e’tibori va mas’ulligini oshirish maqsadida mavjud qonunlar va yangi qabul qilinadigan qonunlarda OAVda davlat tili meyorlariga qat’iy amal qilish tartibi va javobgarligi to`g`risida tegishli norma kiritilishi yoki qonunosti hujjatlarida ushbu qoida aniq ifodalanishi zarur.

Bugungi kunda davlat va nodavlat teleradiokanallari va studiyalarida o`nlab malakali, tajribali, nutq madaniyati va mahorati yuqori boshlovchilar faoliyat ko`rsatishmoqda. Ularning faoliyati har tomonlama, ya’ni axborotning aniq,

⁴⁰ Абдусайдов А. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш холис ва таъсирчан ахборот манбаини талаб этади. // «Turkiston» газетаси, 2011 йил 9 февраль, 12(15442)-сон, 3-бет.

mazmunli, shirali ovozda, nutq madaniyati va mahoratiga katta e'tibor bergan holda, adabiy til meyorlariga mos ravishda yetkazilishi yoshlarning savodxonlik, nutq mahorati va notiqlik sifatlarini egallashlari uchun muhim ahamiyatga ega. Lekin keyingi yillarda ayrim telekanallar, ayniqsa, nodavlat radiokanallarida boshlovchilarning nutq madaniyatiga e'tiborlari talab darajasida bo'lmayapti. Ular nutqida shevachilikka berilish ba'zan oddiy holga aylanib borayotgan bo'lsa, ayrim hollarda jumla tuzishda mavjud adabiy meyorga rioya etmaslik, pala-partish gap tuzishlar, balandparvoz jumla qurishlar uchrab turibdi. Bunday hollar yoshlar nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etayotganligini boshlovchilar bilan bevosita aloqa qilayotgan, ularning savollariga javob berayotgan yoshlarning nutqida ham kuzatish mumkin.

«Teleradioeshittirishlar to'g'risida»gi yangi qonunni qabul qilish jarayonida, fikrimizcha, teleradio boshlovchilarning davlat tili qonun-qoidalariga, xususan, adabiy til meyorlariga qat'iy rioya etishda mas'uliyatini belgilovchi, SMS larni namoyish etishda yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida efirga uzatish javobgarligini ta'minlovchi norma, ya'ni «Teleradioeshittirishlarda boshlovchi va jurnalistning adabiy til meyorlariga rioya etish prinsiplari» nomli normani kiritish davr talablaridan biriga aylanib bormokda».

“SO`Z QUDRATI. Bugungi kun jurnalistlari mustaqillik yillarida uni nechog'lik anglab yetgan” sarlavhali maqola⁴¹ da ommaviy axborot vositalarida janrlar imkoniyatlaridan foydalanish holati, materiallarning ta'sirchanligini oshirishda til imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, adabiy meyorga amal qilish kabi masalalar yoritilgan. Unda, jumladan, shunday deyiladi: “Hozirgi kunda

⁴¹ Абдусаидов А. Сўз қудрати. Бугунги кун журналистлари мустақиллик йилларида уни нечоғлик англаб етган. //«Zarafshon» газетаси, 2011 йил 17 февраль, 20(21.865), 4-бет.

gazetalarda, janrlar imkoniyatlari va tildan foydalanish sohasida ayrim kamchiliklar uchraydi. Ba'zi materiallarning janr xususiyatini belgilash nihoyatda qiyin. Tildan foydalanishda mahorat yetishmasligi hollari mavjud. Ayrim gazetalarda, xususan, nodavlat gazetalarda bosilayotgan intervyularning saviyasi nihoyatda past. Suhbatdoshga berilayotgan savollar ularning shaxsiy hayoti, maishiy turmushi bilan bog'liq oddiy, kishining ensasini qotiradigan, ba'zan g'ashini keltiradigan savollar hisoblanadi. Intervyularning oldi-qochdi gaplar, bachkana fikrlar, savollarga berilgan mantiqsiz javoblar orqali yozilishi mazkur janrning imkoniyatlarini to'la bilmaslik, uning saviyasi va ma'naviy oqibatini o'ylamaslik, faqat iqtisodiy jihatlarini hisobga olishdan boshqa narsa emas".

"OAV, xususan, matbuot ma'naviyatimiz ko'zgusi, ona tilimizning naqadar boyligi, go'zalligi, jozibadorligi, adabiy meyorlarga mosligi, yozma nutqimizning namunaviyligini ko'rsatuvchi manbalardan biridir. Lekin ayrim materiallar tilining adabiy til meyorlariga to'la mos emasligi, imloviy, hatto uslubiy xatolarning tobora ko'payib borayotganligi, axborotni ta'sirchan ifodalash o'rniga oddiy bayonchilik ustun bo'layotganligi ma'lum ma'noda tashvish uyg'otadi. Kelgusida soha xodimlarining tilimizga e'tibori va mas'ulligini oshirish maqsadida mavjud qonunlar va yangi qabul qilinadigan qonunlarda OAVda davlat tili meyorlariga qat'iy amal qilish tartibi va javobgarligi to'g'risida tegishli norma kiritilishi yoki qonunosti hujjatlarida ushbu qoida aniq ifodalanishi zarur, deb hisoblaymiz".

Maqolada bugungi kunda OAV tili va uslubini o'rganish sohasida tadqiqotlar yo'nalishi ham belgilab berilgan. Jumladan: "Nodavlat OAV bilan turli sohalarda hamkorlikni ta'minlash ularning faoliyatini janr va tildan foydalanish sohasida ilmiy tahlillar asosida tashkil qilish, mahoratni oshirishda o'zaro tajriba almashish, davlat tili qonun-qoidalariga rioya etishda mas'ul likni bir xilda ta'minlash imkoniyatini ham beradi. Bugungi kunda bu sohada Samarqand Davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrası qoshidagi "Sosiolingvistika ilmiy laboratoriyasi"da ma'lum tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. "Nodavlat ommaviy

axborot vositalarida janr va til mahorati" mavzuida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda".

Bugungi kunda siyosiy partiyalar gazetolari tanqidiy materiallarda xolis tanqidni amalga oshirishda til imkoniyatlaridan ba'zan o'rinli foydalana olmayotganliklari ham ta'kidlangan. Masalan: "Yurtimizda amalga oshirilayotgan va yuqori bosqichga ko'tarilayotgan demokratik islohotlar, xususan, "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari" tamoyilini izchil amalga oshirish jarayonida turli siyosiy partiyalarning roli va partiya nashrlarining nufuzi tobora ortib bormoqda. Turli partiyalar o'z Dasturlarida belgilangan yuksak maqsadlarini ommaga yetkazish va islohotlarga daxldorlik tuyg'usini yanada kuchli shakllantirish sohasida muayyan ishlarni amalga oshirmoqdalar. Buni "O'zbekiston ovozi", "Milliy tiklanish", "Adolat" gazetalarining faoliyatida aniq ko'rish mumkin. Partiyalarning bir-birlari faoliyatlarini tanqid qilishlari yoki ma'lum tanqidiy materialga javob berishlari, haqiqiy ahvolni ko'rsatishga intilishlari, jamiyat hayotida munosib "maydon"ga ega bo'lish uchun kurashishlari, tabiiy. Lekin adolatni qaror toptirish, masalaga haqqoniy baho berish uchun gazeta materialida tilimizning eng zaharxanda, achchiq, alamli iboralaridan foydalanish shartmikan?! Hazrat Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" nomli asarida qayd etganlaridek, tavharning asl gavharligini isbotlash uchun uni toshga urib maydalab, haqlikni isobotlashga urinish lozim emasligini yodga olish kerakmikan?! Tanqid asosli, xolis, faktlarga tayangan holda, raqibning g'ashini keltiradigan va g'azabini uyg'otadigan tarzda emas, mardlarcha tan oladigan shakllarda bayon etilsa, bundan jamiyat ham, insonlar ham yutadi".

"Tezkor va ta'sirchan axborot yetkazish bugungi OAVning asosiy vazifasiga aylanmoqda"⁴² sarlavhali maqolada shunday deyiladi: "Prezidentimiz ma'ruzasida

⁴² Абдусайдов А. Тезкор ва таъсирчан ахборот етказиш бугунги ОАВнинг асосий вазифасига айланмоқда. // «Milliy tiklanish» газетаси, 2011 йил 23 февраль, 8 (121)-сон, 1-, 4-бетлар

belgilangan vazifalar ijrosini to'la ta'minlash uchun OAV faoliyatini davr talabi nuqtai nazaridan jurnalistlarning kasbiy mahorati va davlat tili qoidalari, adabiy til meyorlariga amal qilish holati jihatidan baholash, kelgusida namunaviyligini ta'minlashga xizmat qiluvchi, bu sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga ko'maklashuvchi tavsiyalar berish har jihatdan foydali va davr talabiga mosdir". Maqolada davlat tili to'g'risidagi qonun talablariga rioya etish, adabiy meyor buzilishlarining oldini olish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida»gi, «Teleradioeshittirishlar to'g'risida»gi yangi qonunlarni qabul qilish sohasidagi vazifalar OAVning bugungi kundagi faoliyati bo'yicha tegishli tahlillarni olib borish, sohadagi yutuqlar va tajribalarni umumlashtirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, yuqori sifat va samaradorlikka erishishga xizmat qiladigan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni ham taqozo etadi. OAV faoliyatini yanada isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash sohaning iqtisodiy asoslarini huquqiy kafolatlash bilan birga inson omili - jurnalistlarning kasbiy-ijodiy faoliyatini davr talabi asosida tashkil etish, mahoratini tobora oshirib borish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ta'sirchan materiallar yozishga rag'batlantirish kabilarni ham nazarda tutadi. Demak, soha xodimlari, ayniqsa, jurnalistlarning kasb mahorati chuqur tahlil etilib, tegishli baholanishi axborotni ta'sirchan shakl va mazmunda yetkazishning asosiy mezonlaridan biridir", deyiladi.

"Nutq madaniyati va mahorati barcha soha xodimlari uchun juda muhim"⁴³ sarlavhali maqolada ta'lim tizimidagi islohotlardan biri yangi avlod darsliklarini yaratish, barcha soha mutaxassislarining nutq madaniyatini puxta egallashlariga

⁴³ Абдусайдов А. Нутқ маданияти ва маҳорати барча соҳа ходимлари учун жуда муҳим. // «Adolat sari» газетаси, 2011 йил 30 март, 6(342)-сон, 5-бет.

erishish, buning uchun yangi, davr talabiga javob beradigan fanlarni o`qitishni o`quv rejalariga kiritish kabi masalalar bo`yicha fikrlar bildirilgan. Maqolada, jumladan, shunday deyiladi: “Ta’lim tizimidagi tub islohotlar o`z samarasini bera boshlab, mustaqillik yillarida tilshunoslik fanlarini o`qitishga e’tibor ham yanada oshdi. Umumta’lim, o`rta maxsus va oliy ta’lim tizimida yangi avlod darsliklari asosida tilshunoslik fanlari bo`yicha ham zamonaviy bilimlar berila boshlandi. Istiqlol yillarida «Kompyuter lingvistikasi», «O`zbek tilshunosligi tarixi» fanlari o`qitilishining izchil yo`lga qo`yilishi ham shundan dalolat beradi. Lekin tilshunoslik fanlarini o`qitishni tubdan yaxshilash, darslarning sifati va samaradorligini ko`tarish, o`qitishni zamonaviylashtirish, o`quv adabiyotlari bilan ta’minlashni yanada yuqori bosqichga ko`tarish, «zerikarli» fandan «qiziqarli» fanga aylantirish, yangi fanlarni o`qitish zaruriyati paydo bo`lmoqda.

Zamonaviy tilshunoslik ilmiy tadqiqot usullari tahlil darajasi bugungi kunda o`zbek tilshunosligida ham, g`arb tilshunosligi ta’sirida ancha ilgarilab ketdi. Termin qo`llashda dunyo tilshunosligidagi yutuqlarni o`zlashtirib, ilmiy asarlar yaratish navbatdagi muvaffaqiyatlarga, o`zbek tilshunosligining obro`-e’tibori oshishiga sabab bo`ladi. Lekin ana shu yutuqlar o`quv adabiyotlarida qanchalik tez va ko`lamli aks etishi kerak? Har bir dolzarb mavzudagi ilmiy tadqiqot, monografiya, dissertasiyadagi terminlar darhol o`quv adabiyotiga kiritilishi kerakmi? kabi savollar bo`lishi tabiiy. Filologiya yo`nalishida tahsil olayotgan turli bosqich talabalari bilan o`tkazilgan suhbatlarda yangi avlod o`quv adabiyotlarida termin qo`llash tobora murakkablashib borayotganligi takror-takror bildirilmoqda. Demak, ilmiy tadqiqotlarda qo`llanilayotgan terminlarni o`quv adabiyotlariga singdirishda muammolar paydo bo`lmasligi uchun oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislarning maqomi (bakalavr va magistr) hisobga olinishi lozim.

Davr tilshunoslik fanlarini o`qitishda ham yangicha talablar, mavjud nazariy bilim berishga asoslangan («Til tarixi», «Etimologiya», «Dialektologiya» kabi)

fanlarni o`qitishda ularning materiallarini davr bilan bog`lashni, yangi fanlarni (asosiy va tanlanma fan sifatida) o`quv dasturiga kiritishni taqozo etmoqda. Masalan, hozirgi davr talabini hisobga olganda, filologiya va boshqa mutaxassisliklar bo`yicha tahsil olayotgan talabalarga «O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati» fanini o`qitishni o`quv rejasiga kiritish har jihatdan foydalidir.

«O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati» kursining turli soha mutaxassislari o`qitilishi zamonaviy yetuk kadrlar tayyorlashning garovi sifatida, ularning davlat tiliga e`tiborini oshiradi, yuksak ma`naviyatli va ma`rifatli, savodxon, yozma va og`zaki nutqda mahoratli, notiq yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Yoshlarimizning savodxonlikdan yuqori nutq mahorati va notqlik sari intilishlarini rag`batlantirish uchun mazkur fan asoslarini ta`limning zamonaviy texnologiyalarini qo`llab o`qitishni tashkil etish lozim”.

“Globallashuv sharoitida ona tiliga munosabat yoki davlat tilining ijtimoiy rolini oshirishga doir chora-tadbirlar xususida”⁴⁴ sarlavhali maqolada hozirgi kunda globallashuv jarayoni madaniy, ma`rifiy sohalarga ham jiddiy ta`sir etayotganligi qayd etilib, globallashuv jarayonining tilning ijtimoiy roli, davlat tilining mavqeiga ta`siri ayrim salbiy jihatlari bilan namoyon bo`layotganligi, xususan, ko`p tillilik zaruratga aylangan bir paytda ona tilining mavqeini mustahkamlash eng birinchi vazifa bo`lib qolayotganligi ta`kidlangan. Maqolada talabalari o`rtasida «Ona tiliga munosabat» mavzuida o`tkazilgan sosiologik so`rov natijalar berilgan. Jumladan: “So`rovdagi savollarning birinchisi «O`z ona tilingizni qay darajada bilasiz?» deb nomlandi. Unda qatnashganlarning 34,0 foizi

⁴⁴ Абдусаидов А. Глобаллашув шароитида она тилига муносабат ёки давлат тилининг ижтимоий ролини оширишга доир чора-тадбирлар хусусида.// «Adolat» газетаси, 2011 йил 8 апрель, 16(821)-сон, 1-, 7-бет.

– a’lo darajada; 47,9 foizi – yaxshi darajada; 18,1 foizi - o`rta darajada degan javobni berishgan.

«Siz oilangizda ko`proq qaysi tilda so`zlashasiz?» degan savolga respondentlarning 82,0 foizi - o`zbek tilida; 17,0 foizi - tojik tilida; 1,0 foizi – rus tilida degan javob qilishdi.

«Siz ijtimoiy munosabatlarda, asosan, qaysi tilda so`zlashasiz?» degan savolga respondentlardan quyidagicha javoblar olindi: 82,0 foizi - o`zbek tilida; 5,3 foizi - tojik tilida; 12,7 foizi - rus tilida.

«Globallashuv jarayoni davlat tilining obro`siga ta’sir ko`rsatadimi?» degan savolga ham javoblar turlicha: ta’sir qiladi - 57,4 foizi; ta’sir qilmaydi - 22,4 foizi; ijobiy ta’sir qiladi - 5,3 foizi; bilmayman - 14,9 foizi va hokazo.

Yuqoridagilardan ko`rinadiki, ona tiliga munosabat sohasida yoshlarimiz befarq emas, ularning har birida o`z qat’iy nuqtai nazari mavjud. Globallashuv sharoitida amalga oshiriladigan tegishli chora-tadbirlarning asosiy Dasturi O`zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni bo`lib, uning talablari to`la, beka mu-k o`st bajarilishi shart, albatta”.

A.Abdusaidovning “O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati yoki yangi fanlarni o`qitish davr talabidir”⁴⁵ sarlavhali maqolasida «O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati» fanini o`qitishda tilning jamiyatdagi o`rni, ijtimoiy holati, hozirgi davrda tilning rivojida yuz berayotgan o`zgarishlar, globallashuv jarayonining til ma’naviyati va nutq madaniyatiga ta’siri kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilishi asoslab berilgan. Ushbu fan hozirgi paytda SamDU o`zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabalariga tanlanma sifatida o`qitilmoqda. Aslida uni ixtisoslik fani sifatida barcha talabalarga o`qitish foydalidir. Chunki ushbu fan bo`lg’usi mutaxassislarni tilning hozirgi ijtimoiy holatidagi o`zgarishlardan xabardor qiladi va ularni e’tiborli bo`lishga undaydi. Shuningdek, zamonaviy yetuk kadrlar tayyorlashning garovi sifatida ularning davlat

⁴⁵ Абдусaidов А. Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти ёки янги фанларни ўқитиш давр талабидир. // «Milliy tiklanish» газетаси, 2011 йил 27 апрель, 16(129)-сон, 5-бет.

tiliga e'tiborini oshiradi, yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli, savodxon, yozma va ogzaki nutqda mahoratli, notiq yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot...” sarlavhali⁴⁶ maqolada shunday deyiladi: “Ichki ishlar idoralari xodimlari orasida milliy tarbiya asoslarini targ'ib etish, ularni shu ruhda tarbiyalash sohasida muayyan harakatchan va faol tizim yo'lga qo'yilgan. Unga to'la amal qilish bilan ichki ishlar idoralari xodimlariga qo'yiladigan kasbiy, ma'naviy-ma'rifiy talablarni mavjud qonunlar asosida hal qilish imkoniyatini yuzaga chiqarishga erishiladi. Ma'lumki, jamiyatdagi har bir inson o'zining muloqot madaniyati bilan o'rnini topa boradi. Yuksak madaniyatga intilgan ma'rifatli insonlarning muloqoti, til vositalaridan, ya'ni nutqdan o'rinli foydalanishi ko'plab yutuqlarga sabab bo'ladi. Ayniqsa, xalq bilan muomala, muloqot qiladigan inson, jumladan, ichki ishlar idoralari xodimlarining nutq madaniyati nihoyatda yuqori bo'lishini ularning kasb odobi ham taqozo etadi”.

“Globallashuv jarayoni va ona tili”⁴⁷ sarlavhali maqola ham dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lib, ona tiliga munosabatni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Maqoladagi ona tilimizning sofliğini saqlash borasida bildirilgan quyidagi fikrlar e'tiborni tortadi: “Tahlillar shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda yaratilayotgan ko'plab kino asarlarida yoshlar muloqot madaniyatiga ta'sir qiladigan ayrim salbiy holatlarni kuzatish mumkin. G'arb filmlarida ko'plab uchraydigan baqirish-chaqirishlar, ur-yiqitlar, haqorat so'zlar bizning ayrim filmlarimizda ham uchramoqda. Yana bir e'tiborli holat film qahramonlari nutqida ruscha so'zlarni noo'rin qo'llash, shevachilikka berilish kuzatilmokda. Masalan, *"Bir kelib keting kishlog'imizga"* nomli kinoning qishloq hayotiga bog'liqligi ayon,

⁴⁶ Абдусайдов А. Тарбия биз учун ё ҳаёт, ё мамот...// «Adolat sari» газетаси, 2011 йил 17 май, 9(345)-сон, 5-бет.

⁴⁷ Абдусайдов А. Глобаллашув жараёни ва она тили...// «Zarafshon» газетаси, 2011 йил 15 октябрь, 123(21.968), 2-бет.

lekin unda **"bratan"** soʻzining noʻrin ishlatilishi, soʻzlarning **"borlaring, koʻrovman, boʻtta"** tarzida shevada talaffuz etilishi yoki qiz bolaning oʻz singillariga **"ishlaringni qilsalaring oʻlasanlarmi?"**, **"yoʻqol koʻzimdan"** kabi qoʻpol ohangdagi muomalasini koʻrish mumkin. **"Yetti haykal, bitta kal"** filmida esa qahramon nutqida **"yuragim slabiy, tak chto, ladno, xochesh, importniy, kriminal yoʻq, slushay, pod-vodit qilding"** kabi soʻz va iboralarning noʻrin ishlatilishi yoshlar nutqiga salbiy taʼsir qilmasdan qolmaydi.

Telekoʻrsatuv va radio eshittirishlarning ayrimlarida ham shevachilikka berilish koʻpayib bormoqda. Ziyolilarning, ayniqsa, rahbar xodimlarning ommaviy axborot vositalari orqali shevachilikka berilishi baʼzi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Kino asarlaridagi ayrim qoʻpol muomala lavhalarining meyordan oshishi yoshlar muomala madaniyatiga salbiy taʼsir etadi".

"Soʻz qadrini bilmagan suxandon yoki ayrim televideniye va radio boshlovchilarida oʻzbek tilidan foydalanish mahorati yetishmayotganligi toʻgʻrisida"⁴⁸ sarlavhali maqolada radio va televideniye boshlovchilarining nutq madaniyati xususida tahlitliy material berilgan. Boshlovchilarning talaffuzi, soʻz qoʻllash va jumla tuzishdagi kamchiliklari, shevachilikka berilish, ruscha soʻzlarni noʻrin qoʻllash kabilar misollar asosida tahlil etilgan. Bunday maqolalar mutaxassislar, boshlovchilar va barcha gazetxonlar uchun ham foydalidir.

"Zarafshon" gazetasida bosilgan "Davlat tili – dovrugʻ tili" sarlavhali maqolada "Davlat tili haqida"gi qonunning ijtimoiy ahamiyatini yoritish bilan

⁴⁸ Абдусаидов А. Сўз қадрини билмаган сухандонёки айрим телевидение ва радио бошловчиларида ўзбек тилидан фойдаланиш маҳорати етишмаётганлиги тўғрисида. // «Zarafshon» газетаси, 2005 йил 22 ноябрь, 145(21.037), 4-бет.

birga, Samarqand shahrida qonun talablariga rioya etish holati tahlil etilgan va ko'plab misollar keltirilgan. Muallif avtobuslar yo'nalishlari nomlari, ko'cha nomlari, peshlavhalarni yozishda Qonun talablari buzilayotganligini kuyunib qayd etadi. Maqolada quyidagi fikrlar mavjud: "Samarqand shahridagi qator tadbirkorlik shakllarining nomlari "Davlat tili haqida"gi Qonun talablariga mutlaqo javob bermaydi. Mirzo Ulug'bek ko'chasidagi "Milana" go'zallik saloni, Gagarin ko'chasidagi "Laguna" kafesi, Abu Ali Ibn Sino va Dahbed ko'chalari kesishmalarida o'rnatilgan "ROTBAND" tashqi reklama vositalarining atamalari nima ma'no anglatishini tushunish qiyin. Samarqand tumanining Aravaso'zlar qishlog'i da "Diamond PLAZA " mehmonxonasi nomi ham "Davlat tili haqida"gi Qonun talablariga mos emas.

Davlat tili - dovrug' tili. Chunki, davlat tili mamlakatimizning dovrug'ini, uning shon-shuhratini butun dunyoga tarannum etadi. Ushbu tilda davlatimizning siyosiy mustaqilligini ta'minlovchi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlanishiga asos bo'luvchi, milliy xavfsizligi va xalqaro aloqalarining tub o'zaklari bitilgan muhim qonun hujjatlari yaratiladi va e'lon qilinadi. Bu til millatning yuz-ko'zi, tafakkuri va yuksak ma'naviyatini ham aks ettiradi. Shunday ekan, jamiyatimizning har bir a'zosi davlat tilini dovrug' tili sifatida hurmat qilishi va "Davlat tili haqida"gi Qonun talablarini kundalik faoliyatida bajarishni o'zlarining fuqarolik burchi, deb qarashi lozim"⁴⁹.

Gazetalarda bosilayotgan maqolalarning ma'lum qismini notiqlik san'atini egallashga oid materiallar tashkil etadi. Haqiqatan ham, notiqlik sifatlarini egallash har bir inson uchun muhim ahamiyatga ega. Tarixdan ma'lumki, notiqlik sarkardalik sifatleri bilan tenglashtirilgan. Bu borada "O'zbekiston ovozi" sahifalarida bosilgan maqolalar e'tiborni tortadi. Filologiya fanlari nomzodi

⁴⁹ Суюнов Й. Давлат тили – довруг тили. // «Zarafshon» газетаси, 2011 йил 21 октябрь.

Rahimboy Jumaniyozovning “Notiqlik – san’at”⁵⁰ sarlavhali maqolasida yunon notiqligining yirik namoyandasi Demosfen, Rim notig’i Siseron, Sharq notiqlaridan Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Muin voiz singarilarning faoliyati notiqlik sirlarini egallashda namuna ekanligi qayd etiladi. Maqolada, jumladan, quyidagi fikrlar mavjud: “Notiqlikning asosi bo’lgan so’z va nutq haqida ham e’tiborli e’tiroflarni uchratish mumkin. Siseron «Tarixda yo yaxshi sarkarda yo yaxshi notiq bo’lish kerak», desa, Kaykovus «Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir», - deydi. E.Jirarden esa “So’zning kuchi behaddir. Chekinayotgan qo’shinni to’xtatish, mag’lubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutqazib qolish uchun goho o’rinli aytilgan bir so’z ham kifoya bo’lgan»,- deb yozadi.

Endilikda notiqlik san’atining imkoniyatlaridan milliy mafkuramiz va istiqlol g’oyalarini ommaga tushuntirishda keng foydalanish vaqti yetdi. So’z tushuntirish va tushunish, anglash yoki anglatishda emas, balki qanday tushuntirish, anglatish va qanday tushunish hamda anglashdadir. Tushuntirish va anglatish darajasini egallash notiqlikning nazariy jihatlarini bilish emas. uning turli xil uslub va shakllarini amalda muvaffaqiyatli qo’llay olish bilan belgilanadi.

«Notiq», «nutq», «mantiq» bir o’zakdan yasalgan so’zlardir. Ana shu uch birlik asosida notiqlik san’ati bo’y ko’rsatadi. Notiq ma’lum bir fikrni ishonarli tarzda ta’sirli va erkin yetkaza oluvchi, aniqrog’i, «yuqtira oluvchi», tinglovchida tasavvur, bilim, munosabat, ichki xohish hosil etuvchi, san’atkorlik iqtidoriga ega bo’lgan orif, bilimdon shaxs bo’lishi kerak.

Nutqning lisoniy jihatlarini puxta bilish notiq bo’lish degani emas. Notiq, avvalo, san’atkor, auditoriya bilan «til topisha» oladigan o’ziga va so’ziga

⁵⁰ Жуманиёзов Р. Нотиқлик – санъат. // “Ўзбекистон овози” газетаси, 2001 йил 18 октябрь.

tinglovchilarni ishontira oladigan, o`ziga yarashadigan tarzda aktyorlik mahoratiga ega nutqiy mahorat sohibi bo`lishi lozim.

Notiq nutqiy mahoratining ichki tomoni bor. Birinchisi, nutqiy madaniyat bo`lsa, ikkinchisi nutq texnikasidir. Til qoidalaridan to`g`ri foydalanish asosida mantiqiy fikr aytish nutqiy madaniyat bo`lsa, uni chiroyli, burro talaffuz, jarangdor, yoqimli ovoz bilan yetkazish nutq texnikasidir. Bu ikkala jihatning bir butunligisiz nutqiy mahoratni tushunish qiyin. Ba`zi nutq egalarining tafakkur tarzi, saviyasi, dunyoqarashi, masala mohiyatini nozik ilg`ashi, fikriy munosabati ibratli, lekin diksiyasi, ovozi, talaffuzi maqtoqli emas”.

Ushbu maqolaning yana bir ahamiyatli jihati, unda nutqning asosiy sifatlari aniqlik, tozalik, mantiqiylik, ishontirish, maqsadga muvofiqlik kabilar dalillangan.

Filologiya fanlari nomzodlari Tolib Jo`rayev va Zafar Pardayevning “So`z – ilohiy qudrat yoxud nutq madaniyati tarixidan”⁵¹ sarlavhali maqolasida notiqlik san`ati tarixiga oid ayrim ma`lumotlar keltirilgan. Maqolada G`arb va Sharq notiqligi namoyondalari tilga olinib, jumladan, shunday deyiladi: “Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida nutq madaniyatining o`ziga xos o`rni bor. Bu zaminda notiqlikning rivojlanishi va taraqqiy etishida Kur`oni Karim muhim ahamiyat kasb etadi. G`.G`ofur o`zining «Tafakkur» jurnalida chop etgan «Ibtidodagi ahd» maqolasida shunday deydi: "Benihoya ruhiy qudrat bilan jaranglovchi, bandalarni hidoyatga yo`llovchi, alohida huzuriga yetaklovchi muqaddas so`zdir... So`z insonni dunyoning va ilohiy komillikning cho`qqilariga olib chiqadi". Muallif bu o`rinda, so`z deganda Qur`onni nazarda tutmoqda. Demak, insonga nutq eng oliy tuhfa sifatida berilgan. Undan foydalanishda juda ehtiyotkor bo`lmoqlik, komil inson oldiga qo`yiladigan talablardan kelib chiqmoqlik kerak. Qur`onda ham, hadislarda ham tildan foydalanishda ana shu talablarga rioya qilish lozimligi ta`kidlanadi. Lekin tilshunoslikda hozirga

⁵¹ Жўраев Т., Пардаев З. Сўз – илоҳий қудрат ёхуд нутқ маданияти тарихидан.// «Zarafshon» газетаси, 2011 йил 5 ноябрь.

qadar Qur'on va nutq madaniyati, tasavvufiy adabiyotlar tili va nutq madaniyati masalalari o'rganilgan emas. Bu albatta, tilshunosligimiz oldidagi navbatdagi vazifalardan biri hisoblanadi". Ushbu fikrlar tilshunos olimlar oldida turgan navbatdagi masalani yodga tushirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Nuriddin Boboqandovning "Zarafshon" gazetasida bosilgan "Notiq bilim va mahoratga ega bo'lmasa tinglovchi hurmatini qozonolmaydi"⁵² sarlavhali maqolasi e'tiborni tortadi. Keyingi paytlarda o'tkazilayotgan turli tadbirlarda, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot va tashviqot ishlari samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan respublika sayyor seminarida ham notqlik san'ati sirlarini egallash va amalda foydalanish masalalarining alohida qayd etilishi ibratlidir. Muallifning quyidagi fikrlari e'tiborni tortadi: "Notiq birinchi galda zamon ruhini, davr talabini bilmog'i lozim. Demak, ana shu dolzarb masalaning yechimi yuzasidan o'zini daxldor va mas'ul his qila bilishi kerak. Tabiiyki, har qanday masalaning hal etilishi kishidan chuqur, har tomonlama puxta bilim va tajribani talab etadi. Ya'ni, lektor keraklicha bilim va malakaga ega bo'lmasa, auditoriya hurmatini qozonolmaydi. Lektor uchun zarur bo'lgan xususiyatlardan biri, zukkolik, fahm-farosatdir. Zukko notiq so'zlari auditoriyaga qanday ta'sir etayotganini o'z vaqtida sezadi va shunga qarab ish tutadi".

Til ijtimoiy hodisa sifatida kishilar o'rtasida muhim aloqa quroli hisoblanib, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda muloqot madaniyatining o'rni katta. Keyingi paytlarda gazetalarda muloqot madaniyati, uni shakllantirish omillari xususidagi maqolalar ko'plab bosilmoqda. Masalan, professor Suyun Karimovning "Zarafshon" gazetasida bosilgan "Dil qulfining kaliti" sarlavhali maqolasi e'tiborni tortadi. Olim muomala, muloqot madaniyatida til omili haqida to'xtalar ekan, tadbirkorlarning faoliyatida muomala madaniyati

⁵² Бобоқандов Н. Нотиқ билим ва маҳоратга эга бўлмаса тингловчи хурматини қозонолмайди.// «Zarafshon» газетаси, 2009 йил 20 октябрь,

muhimligini qayd etadi. Ko'p yillar davomida Kolumbiya va Nyu-York universitetlarida notiqlik san'ati bo'yicha dars bergan mashhur amerikalik psixolog olim Deyl Karnegi merosidan ko'plab xarakterli misollarni keltiradi. Ular orasida quyidagi fikrlar ajralib turadi: Olim bu xislatlar orasida eng muhimi ochiq ko'ngillik va samimiyat, deb hisoblaydi: "Samimiyat-insondagi eng oliy va ta'sirchan, beminnat va yengilmas qurol. Samimiyatni hatto hayvonot olami ham to'g'ri qabul qila oladi. Samimiyati beg'araz bo'lmagan do'stlik, muhabbat, hamkorlik, oila, qarindosh-urug'chilik, jamoadoshlik omonatdir. Samimiyat bo'lmagan joyda g'arazgo'ylik, g'iybat, baxillik, ichiqoralik, aldoqchilik, xiyonat, ochko'zlik, urush-janjal vujudga kelishi tabiiy"⁵³.

Muloqot madaniyatining muhim jihatlari ruhshunoslik fanlari nomzodi Mahmud Yo'ldoshevning "Ma'rifat" gazetasida bosilgan "Lazzatlar ichida eng shirini – suhbat" sarlavhali maqolasida keng yoritilgan⁵⁴. Ushbu maqolaning kichik sarlavhalari ham e'tiborni tortadi va mavzu doirasidagi asosiy axborotni beradi: "Suhbatdan kim manfaatdor?", "Diqqatni jalb qilish san'ati", "Eshitish odobi" kabilar.

A. Abdusaidovning "Milliy tiklanish" gazetasida bosilgan "Muloqot madaniyati nutqni shakllantiradigan omillarga bog'liq" sarlavhali maqolasida muloqot madaniyatining asosiy sifatleri haqida batafsil fikr yuritgan⁵⁵. Muallifning quyidagi fikrlari e'tiborni tortadi: "Insonlar o'rtasidagi muloqot til vositalari orqali yuz bersa-da, uning yuqori madaniyatli, ma'rifatli bo'lishi nafaqat til birliklaridan adabiy til meyorlariga amal qilgan holda, nutq madaniyati talablari darajasida

⁵³ Каримов С. Дил кулфининг калити. //«Zarafshon» газетаси, 2011 йил 18 октябрь.

⁵⁴ Йўлдошев М. Лаззатлар ичида энг ширини – суҳбат.// "Маърифат" газетаси, 2003 йил 22 октябрь.

⁵⁵ Абдусaidов А. Мулоқот маданияти нутқни шакллантирадиган омилларга боғлиқ. // «Milliy tiklanish» газетаси, 2012, 15 апрель, 1(114)-сон, 1-, 5-бетлар.

suhbatlashishni, balki boshqa bir qancha omillarni ham hisobga olishni talab etadi. Bunday omillar sirasiga, masalan, quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Umuminsoniy qadriyatlarni hisobga olish.
2. An'anaviy urf-odatlarini yaxshi bilish va ularga amal qilish:
 - a) kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ko'rsatish;
 - b) xotin-qizlarga alohida hurmatda bo'lish;
 - v) oiladagi tarbiyaviy muhit: er-xotin muomalasi, ota-onaning farzandlariga munosabati;
 - g) ustozlarning shogirdlariga munosabati va muomalasi;
 - d) rahbarlarning oddiy insonlarga munosabati;
 - ye) qarindosh-urug'larning muomalasi;
 - yo) mahalladoshlar va qo'shnilarining o'zaro munosabati.
3. Suhbatdoshlarning tafakkur doirasi, bilim saviyasi, dunyoqarashi.
4. Kishilarning ruhiy holati.
5. Jamiyatdagi ijtimoiy muhit: tinchlik, osoyishtalik, iqtisodiy rivojlanish, millatlararo totuvlik.
6. Milliy o'zlikni anglash va boshqa millatlar vakillarini hurmat qilish kabilar.

Muloqot jarayoni til va yuqorida sanalgan tildan tashqari omillarning o'zaro uyg'unligi natijasida yuzaga kelib, ulardan unumli va oqilona foydalanish muloqotning jonliligi, samimiyligi, samaradorligini ta'minlaydi".

Gazetalarda ona tilining g'ururimiz, millatimiz madaniyati va ma'naviyatining ko'zgusi ekanligini targ'ib etuvchi maqolalarning bosilayotganligi ham e'tiborni tortadi. Bunday maqolalar ona tilimizdan g'ururlanish va faxrlanish tuyg'usini oshiradi, davlat tiliga e'tiborli bo'lishga undaydi. "Xalq so'zi" gazetasida

bosilayotgan maqolalar ana shu xarakterda bo`lib, gazetxonni befarq qoldirmaydi. Masalan, “Xalq so`zi” muxbiri Yangiboy Qo`chqorovning “Til – tafakkur ko`zgusi” sarlavhali maqolasida ona tiliga muhabbat, undan g`ururlanish tuyg`usi, bobokalonlarimizning ona tilidan tashqari ko`plab xorijiy tillarni bilganliklari faxrlanib hikoya qilinadi⁵⁶.

Gazetalarda bosilayotgan maqolalar, ayrim kichik materiallarning ona tilimiz, uning imkoniyatlarini ko`z-ko`z qilish, faxrlanish, nutq madaniyati va mahoratini egallash, notiqlik sirlarini bilishdagi ahamiyati beqiyos. Bunday materiallar keyingi yillarda ko`plab nashr etilmoqda. Ularning aksariyati O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilingan kun - 21 oktyabr sanasi munosabati bilan bosilayotganligi e`tiborni tortadi. Bu, albatta, tarixiy sanaga munosabat nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Lekin shu sana munosabati bilan chop qilinayotgan ayrim materiallarning nihoyatda umumiy yoki qisqaligi bu kabi dolzarb mavzudagi sarmazmun maqolalarni yilbo`yi bosishni kun tartibiga qo`yadi. Masalan, Toshkent davlat yuridik instituti magistrantlari Xursheda Usmonova va Feruza Polvonovaning “O`zbek tili – o`zligim” sarlavhasi juda ko`p mazmunli fikrni qamrab oladi va ko`plab ma`lumotlarni, qimmatli mulohazalarni va`da qiladi. Lekin kichik materialda Alisher Navoiyning xizmatlari, yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi, ish yuritish, atamalarga munosabat, davlat tilidan faxrlanish kabi muhim masalalar bir-ikki jumalalarda bayon etiladi, xolos⁵⁷.

Umuman, gazetalarda nutq madaniyati, til ma`naviyati, muloqot madaniyati, yozma va og`zaki nutq mahorati, notiqlik asoslarini egallash, ta`lim jarayonini takomillashtirish, ona tilimizdan g`ururlanish tuyg`ularini shakllantirish, tilshunoslarimiz oldida turgan dolzarb muammolarga e`tiborni qaratishga

⁵⁶ Каранг: Қўчқоров Я. Тил – тафаккур кўзгуси. // “Халқ сўзи” газетаси, 2001 йил 26 июль.

⁵⁷ Усмонова Х., Полвонова Ф. Ўзбек тилим – ўзлим. // «Zarafshon» газетаси, 2011 йил 21 октябрь.

bag'ishlangan ko'plab maqolalar bosilmoqda. Gazeta maqolalarining davlat tiliga e'tiborli bo'lishimizdagi o'rni va roli nihoyatda katta ekanligini alohida qayd etish mumkin.

XULOSA

1. Jamiyatda ommaviy axborot vositalarining roli(OAV) va o`rni beqiyos. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti, islohotlarning samara berishi, hukumat va xalqning yagona maqsad sari intilishi, ularning yoritilishi, muammolar va yechimining ko`rsatilishi OAVga munosabatda ham ko`rinadi. Mustaqil O`zbekistonimizda istiqlolning dastlabki kunlaridan OAVga davlat siyosati darajasida e`tibor qaratildi. Natijada OAV faoliyatini huquqiy kafolotlovchi o`ndan ortiq qonunlar qabul qilindi va ularning ijrosi ta`minlanmoqda. Bugungi kunga kelib, OAV soni 1200 tadan oshdi, sifati talab darajasida bo`lishiga erishilmoqda.

2. OAV jamiyat hayotida yuz berayotgan o`zgarishlarni baholashda, islohotlarning borishini jadallashtirishda, ommaga xolis, haqqoniy, tezkor axborotni yetkazishda, mavjud muammolarni qayd etish va yechimini ko`rsatishda muhim vosita sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu nuqtai nazardan, O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni ijrosini to`la ta`minlash, muammolar yechimini ko`rsatishda, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda, OAV, xususan, gazetalarniing roli katta bo`lmoqda.

3. Millatimizning ruhi, madaniyat va ma`naviyat ko`zgusi hisoblangan davlat tilining mavqeini yanada yuksaltirish, ona tili imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, adabiy til meyorlariga rioya etish, yuqori savodxonlik, yozma va og`zaki nutq madaniyati hamda mahoratiga erishish, notiqlik sirlarini bilishga da`vat qilishda gazetalarda bosilgan nutq madaniyatiga oid maqolalarning o`rni beqiyosdir. OAV, ish yuritish, ta`lim-tarbiya jarayonida adabiy til meyorlariga rioya etish, muomala madaniyatiga erishish sohasida yutuqlar nihoyatda ko`p. Lekin “Davlat tili haqida”gi qonun ijrosi, adabiy tilimiz meyorlariga rioya etish sohalarida bir qator kamchiliklar ham mavjud.

4. Gazetalardagi maqolalarda til ma`naviyati va nutq madaniyati sohasidagi yutuqlarni namoyish etish, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilishga doir qimmatli

fikrlar bildirilmoqda. Gazetalardagi maqolalarni muammolarning tilga olinishi nuqtai nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin:

- tilning jamiyatdagi o`rni, ona tilining millat g`ururi va iftixorini namoyish etuvchi vosita, millat madaniyati va ma`naviyatining ko`zgusi sifatidagi roli, davlat tilining hozirgi mavqeyini ko`rsatuvchi materiallar;

- O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni tegishli moddalarining ijrosi bo`yicha materiallar;

- yuqori savodxonlikni ta`minlash, imlo qoidalariga rioya etishni targ`ib etuvchi, tegishli kamchiliklar qayd etilgan, materiallar;

- adabiy til merlariga rioya etilmagan holatlar tanqid qilingan va yechimi ko`rsatilgan materiallar;

- “Davlat tili haqida”gi qonunning tegishli moddalariga rioya etilmasdan, nomlash, reklama va peshlavhalarda yo`l qo`yilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etishga doir materiallar;

- OAV da adabiy til meyorlarining buzilishi va ularning oldini olishga doir materiallar;

- nutqning asosiy sifatlari buzilgan holatlar to`g`risidagi materiallar;

- notqlik tarixidan va notqlikni egallash sirlari haqidagi materiallar;

- notqlikning ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirishda targ`ibotchilikdagi o`rniga oid materiallar;

- muomala madaniyatini egallashga doir materiallar;

- tildan ta`lim jarayonida foydalanishni yuqori saviyaga ko`tarishga oid materiallar;

- nutqiy faoliyatida kamchiligi bor bolalarning nutqini o`stirish muammolariga doir materiallar;

- yoshlar nutqini “ommaviy madaniyat” xurujidan asrashga oid materiallar;

- axborot sohasini isloh qilishda til omiliga e`tibor masalasiga doir materiallar va boshqalar.

5. Gazetalarda, asosan, til ma'naviyati va nutq madaniyatiga oid materiallar Alisher Navoiy tavallud kuni, O'zbek tili bayrami (21 oktyabr) munosabati bilan bosilgan.

6. Yuqori saviyali, ilmiy-amaliy ahamiyati katta maqolalar ko'plab nashr qilingan. Lekin bayramlar munosabati bilan umumiy fikrlar bayon etilgan kichik materiallar ham uchraydi.

Gazetalarda bosilgan nutq madaniyatiga oid materiallarni dastlab o'rganish quyidagi vazifalarni belgilaydi:

1) Nutq madaniyatiga oid materiallarni faqat bayramlar munosabati bilan emas, muntazam nashr etish har jihatdan foydalidir;

2) respublikamizdagi barcha gazetalarda bosilgan nutq madaniyatiga oid materiallarning katalogini yaratish;

3) to'plangan materiallarni tahlil qilib, tasniflash asosida ularning qisqacha annotatsiyali to'plamlarini nashr etish;

4) muammolar yechimi ko'rsatilgan, muhim ahamiyatga ega gazeta maqolalarining ma'lum bir mavzu bo'yicha kitobcha variantini chop qilish(bu sohada dastlabki tajriba mavjud: A.Abdusaidov. Til ma'naviyati va nutq madaniyati. Axborot sohasini isloh qilish. Maqolalar to'plami. Samarqand, 2011);

5) Nutq madaniyatiga oid gazeta materiallarini ilmiy tadqiq etish va tegishli xulosa va tavsiyalar tayyorlash kabilar.

7. Malakaviy bitiruv ishi materiallaridan dars jarayonida, kurs va referat ishlari yozishda foydalanish mumkin, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».
4. Abdullayeva Sh. Imlodagi xatolar. // Turkiston, 2007 yil 5 dekabr.
5. Abdusaidov A. Gazeta janrining tili va uslubi. – Samarqand, 2001. - 192 b.
6. Abdusaidov A. Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. – Samarqand, 2004. – 102 b.
7. Abdusaidov A. O'zbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumidan. Til ma'naviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka ta'sir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008. – 132 b.
8. Abdusaidov A. Matbuot tili madaniyati. – Samarqand, 2002. – 96 b.
9. Abdusaidov A. Til ma'naviyati va nutq madaniyati. Axborot sohasini isloh qilish. Risola. Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand, 2011. – 98 b.
10. Abdullayev A., Abdullayeva G. Ish yuritish madaniyati. // Jamiyat va boshqaruv. 2008. 1-son, 46-47-b.
11. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. Amaliy qo'llanma. 3-nashri. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 440 b.
12. Abdumajidov G'. "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi qonunga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2004. – 64 b.
13. Boboqandov N. Notiq bilim va mahoratga ega bo'lmasa tinglovchi hurmatini qozonolmaydi.// «Zarafshon» gazetasi, 2009 yil 20 oktyabr,
14. Abdulkayrov M. "So'z qoidasida intizom...".// "Ma'rifat" gazetasi, 2011 yil 15 noyabr.

15. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 1983.
16. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, I qism.- Toshkent, 1996.
17. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, II qism. - Toshkent, 1997.
18. Begmatov E. Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, III qism. - Toshkent, 1998.
19. Boltayev M. Yozuvlarimiz shahar husniga yarashqlikmi? // «Samarqand» gazetasi, 2011 yil 21 oktyabr.
20. Jumaniyozov R. Notiqlik – san’at. // “O`zbekiston ovozi” gazetasi, 2001 yil 18 oktyabr.
21. Jo`rayev T., Pardayev Z. So`z – ilohiy qudrat yoxud nutq madaniyati tarixidan.// «Zarafshon» gazetasi, 2011 yil 5 noyabr.
22. Yo`ldoshev B. Globallashuv jarayoni va davlat tili muammolari. // «Samarqand» gazetasi, 2011 yil 22 oktyabr.
23. Yo`ldoshev M. Lazzatlar ichida eng shirini – suhbat.// “Ma’rifat” gazetasi, 2003 yil 22 oktyabr.
24. Karimov S., Mamatov X., Bo`riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.
25. Karimov S. Dil qulfining kaliti. //«Zarafshon» gazetasi, 2011 yil 18 oktyabr.
26. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o`zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.– Toshkent, 1991.
27. Mamatov A.E. Yosh avlodning nutqiy madaniyatini tarbiyalash xususida // Davlat tili haqidagi qonunni amalga oshirishning dolzarb muammolari mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari. - Navoiy, 1993.
28. Mahmudov N. Ma’rifat manzillari. – Toshkent, 1999.
29. Mirzayev T., Jo`rayev M. So`z sehrining shaydosi.// “Ma’rifat” gazetasi, 2003 yil 23 oktyabr.

30. Muhammad Shodiy. Tili ravonning yo`li ham ravon. // “Ma`rifat” gazetasi, 2011 yil 21 oktyabr.
31. Rasulov R., Husanov N., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006.
32. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2006.
33. Rafiyev A. “Qilichtek til bila tuttum jahonni”. // “Ma`rifat” gazetasi, 2003 yil 22 oktyabr.
34. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. – 226 b.
35. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009, 22-b.
36. Suyunov Y. Davlat tili – dovrug’ tili. // «Zarafshon» gazetasi, 2011 yil 21 oktyabr.
37. Tojiyev Yo., Mallaboyev M. O`zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari (ommabop qo`llanma). 1-qism. – Toshkent. 2006.
38. Usmonova X., Polvonova F. O`zbek tilim – o`zligim. // «Zarafshon» gazetasi, 2011 yil 21 oktyabr.
39. Xonazarov Q. Globallashuv va til falsafasi. – Toshkent, 2009. – 136 b.
40. Xalqimizning ma’naviy boyligi, milliy qadriyati. // «Milliy tiklanish» gazetasi, 2011 yil 19 oktyabr, 41(154)-son, 1-, 4-betlar.
41. Sharafiddinov. Ona tilim – iftixorim, inja ganjinam. // «O`zbekiston ovozi» gaz. 2003. 11 dekabr.
42. O`zbek tilining imlo lug’ati. –Toshkent: O`qituvchi, 2000.
43. O`rinboyev B. Nutq va notiqlik san’ati.//O`zbek tilshunosligi masalalar. - Samarqand, 2006, 29-31-b.
44. Qo`ng`urov R., Begmatov E., Tojiyev G’. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –Toshkent: Fan, 1992.

45. Qo`ng`urov R., Karimov S., Qurbonov T. Nutq madaniyati asoslari. I qism. 1985,. 39-b.
46. Qo`chqorov Ya. Til – tafakkur ko`zgusi. // “Xalq so`zi” gazetasi, 2001 yil 26 iyul.

**Ilova(Gazetada nutq madaniyati masalalarining yoritilishi.
Bibliografik ko`rsatkich uchun materiallar)**

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TILI VA USLUBINI O`RGANISHGA

OID MATBUOTDA NASHR ETILGAN MAQOLALAR

RO`YXATI

1. Abdusaidov A. Til dilga yo`l ochar. // «Samarqand universiteti» gazetasi, 1990, 20-30 yanvar.
2. Abdusaidov A. Atamalardan oqilona foydalanaylik. // «Boshlang`ich ta`lim» jurnali, 1993. 2-son, 7-b. (Hammuallif N.Turniyozov).
3. Abdusaidov A. So`z ta`sirchan bo`lsa... // «Zarafshon» gazetasi , 1999, 16 iyul.
4. Abdusaidov A. O`zbekning o`zligi bu. // «Zarafshon» gazetasi, 1999, 21 oktyabr.
5. Abdusaidov A. Matbuot tili. // «Muloqot» jurnali, 2002. 1-son, 21-22-b.
6. Abdusaidov A. Ta`sirchanlik – asosiy mezon. // «O`zbekiston matbuoti» jurnali, 2002. 1-son, 30-32-b.
7. Abdusaidov A. Ona tilini o`qitishda gazeta materiallaridan foydalanish haqida. // «Til va adabiyot ta`limi» jurnali, 2002. 1-son, 10-13-b.
8. Abdusaidov A. Matbuot tilida frazeologik neologizmlar. // «O`zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2002. 1-son, 23-27-b. (hammuallif E.Begmatov).
9. Abdusaidov A. Til va jurnalist. // «O`zbekiston matbuoti» jurnali, 2002. 5-son, 10-13-b.
10. Abdusaidov A. Gazeta tili boymi yoki...// «Ko`ksaroy» gazetasi, 2002, 15 yanvar.

11. Abdusaidov A. Matbuot tili - namunaviy til. // «Ko`ksaroy» gazetasi, 2002, 15 yanvar.
12. Abdusaidov A. Til tilni boyitadi. // «Ko`ksaroy» gazetasi, 2002, 30 mart.
13. Abdusaidov A. Jurnalist mahorati. // «Zarafshon» gazetasi, 2002, 19 noyabr.
16. Abdusaidov A. G'afur G'ulom publisistikasi. // «Zarafshon» gazetasi, 2003, 9 may.
14. Abdusaidov A. Matbuot tilida okkazional frazeologizmlar. // «O`zbek tili va adabiyoti» jurnali. 2003. 4-son, 84-86-b.
15. Abdusaidov A. Ob ispolzovaniy internacionalnoy leksiki na stranisax uzbekskoy pressy. // Jurnal «Prepodovaniye yazyka i literatury». 2003. № 1. S.3-7.
16. Abdusaidov A. Jurnalist mahorati. // «O`zbekiston matbuoti» jurnali. 2003. 3-son, 5-70-b.
17. Abdusaidov A. Jurnalist mahorati. // «O`zbekiston matbuoti» jurnali. 2003. 4-5-sonlar, 16-17-b.
18. Abdusaidov A. Ocherk sog'inch. // «O`zbekiston matbuoti» jurnali. 2004. 5-son, 12-16-b.
19. Abdusaidov A. Boshlovchilik ham san'at. // «Adolat sari» gazetasi, 2004, 31 may.
20. Abdusaidov A. So`z qadrini bilmagan suxandon yoki ayrim televideniye va radio boshlovchilarida o`zbek tilidan foydalanish mahorati yetishmayotganligi to`g`risida. // «Zarafshon» gazetasi, 2005, 22 noyabr.
21. Abdusaidov A. So`z va talaffuz. // «O`zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2005, 30 dekabr.
22. Abdusaidov A. Sosiolingvistika laboratoriyasi. // «Turkiston» gazetasi, 2006, 21 mart.

23. Abdusaidov A. «Sosiolingvistika» laboratoriyasi. Uning asosiy maqsadi tilimiz sofliğini saqlashga qaratilgan. // “Ma’rifat” gazetasi, 2006, 17 may.
24. Abdusaidov A. Mas’uliyat hissi. // «Adolat» gazetasi, 2006, 22 sentyabr.
25. Abdusaidov A. Tilimiz ko’zgusi yoki ayrim reklamalar matnlari adabiy til meyorlariga mos kelmayotganligi to’g’risida. // «O’zbekiston ovozi» gazetasi, 2007, 17 fevral (Hammuallif M.Usmonov).
26. Abdusaidov A. SMS jo’natish odobi. OAV SMS larining talabalar va o’quvchilar nutq madaniyatiga salbiy ta’sir qilayotgan ayrim holatlari xususida. // «Samarqand universiteti» gazetasi, 2008, 1-son.
27. Abdusaidov A. SMS uzatish odobi bor(mi)? // «O’zbekiston matbuoti» jurnali. 2008. 2-son, 36-37-b.
28. Abdusaidov A. Reklama va savodxonlik // «O’zbekiston matbuoti» jurnali. 2010. 1-son, 36-37-b.
29. Abdusaidov A. Til ma’naviyati va nutq talabi. Yoshlar ongini “ommaviy madaniyat” xurujidan saqlaylik. // «Zarafshon» gazetasi, 2010, 26 avgust, 107(21.796), 2-bet.
30. Abdusaidov A. Reklama tili aniq va tiniq bo’lsin. Lekin...// «Milliy tiklanish» gazetasi, 2011, 5 yanvar, 1(114)-son, 1-, 5-betlar.
31. Abdusaidov A. Yangi avlod darsliklari ta’limning sifati va samaradorligiga xizmat qiladi.// «Milliy tiklanish» gazetasi, 2011, 19 yanvar, 3(116)-son, 5-bet.
32. Abdusaidov A. Til ma’naviyati va nutq madaniyati yuksak aql-idrok va tafakkur zahirida qudratli kuch bo’la oladi.// («Adolat» gazetasi, 2011, 21 yanvar , 4(810)-son, 1-, 3-bet).
33. Abdusaidov A. Zamon bilan hamnafas olim. // «Zarafshon» gazetasi, 2011, 15 yanvar, 6 (21.851), 4-bet (Hammuallif B.Yo’ldoshev).
34. Abdusaidov A. Axborot sohasini isloh qilish xolis va ta’sirchan axborot manbaini talab etadi. // «Turkiston» gazetasi, 2011, 9 fevral, 12(15442)-son, 3-bet).

35. Abdusaidov A. Soʻz qudrati. // «Zarafshon» gazetasi, 2011, 17 fevral, 20(21.865), 4-bet).

36. Abdusaidov A. Tezkor va taʼsirchan axborot yetkazish bugungi OAVning asosiy vazifasiga aylanmoqda. //«Milliy tiklanish» gazetasi, 2011, 23 fevral, 8 (121)-son, 1-, 4-betlar.

37. Abdusaidov A. Nutq madaniyati va mahorati barcha soha xodimlari uchun juda muhim // «Adolat sari» gazetasi, 2011 yil 30 mart ,6(342)-son, 5-bet.

38. Abdusaidov A. Globallashuv sharoitida ona tiliga munosabat yoki davlat tilining ijtimoiy rolini oshirishga doir chora-tadbirlar xususida. // «Adolat» gazetasi, 2011, 8 aprel, 16(821)-son, 1-, 7-bet).

39. Abdusaidov A. Oʻzbek tilining ijtimoiy mohiyati yoki yangi fanlarni oʻqitish davr talabidir. // «Milliy tiklanish» gazetasi, 2011, 27 aprel, 16(129)-son, 5-bet).

40. Abdusaidov A. Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot...// «Adolat sari» gazetasi, 2011, 17 may, 9(345)-son, 5-bet).

41. Abdusaidov A. Tilimiz fidoyisi . // «Milliy tiklanish» gazetasi, 2011, 1 iyun, 21(134)-son, 6-bet (Hammualif B.Yoʻldoshev).

42. Abdusaidov A. Ustoz tabarruk yoshda (prof.B.Oʻrinboyevning ilmiy-pedagogik faoliyati haqida) // “Adolat sari” gazetasi, 2011 yil 15 iyun, 11 (347)-son, 6-bet(Hammualif B.Yoʻldoshev).

43. Abdusaidov A. Globallashuv jarayoni va ona tili. // «Zarafshon» gazetasi, 2011, 15 oktyabr, 123(21.968), 2-bet).

44. Abdusaidov A. Muloqot madaniyatining asosiy sifatlari. // «Oʻzbekiston matbuoti» jurnali, 2011, 4-son, 37-39-b.

45. Abdusaidov A. Navoiy merosi va davlat tili mavqei. // «Zarafshon» gazetasi, 2011, 1 noyabr, 130 (21.975), 4-bet.

46. Abdusaidov A. Navoiy merosi va davlat tili mavqei. // “Samarqand” gazetasi, 2011, 5 noyabr, 3-bet.

47. Abdusaidov A. Milliy boylik. Alisher Navoiy merosi va davlat tili mavqeyi xususida. // «Milliy tiklanish» gazetasi, 2011 yil 9 noyabr, 44 (157)-son, 1-, 5-betlar.

48. Abdusaidov A. Muloqot madaniyati nutqni shakllantiradigan omillarga bog'liq. // «Milliy tiklanish» gazetasi, 2012, 15 aprel, 1(114)-son, 1-, 5-betlar.

MUNDARIJA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	4
KIRISH	
Nutq madaniyati va adabiy meyor muammolarining	
o'zbek tilshunosligida o'rganilishi.....	11
I SAVODXONLIK DARAJASINI TAKOMIL-	
LASHTIRISHGA OID MATERIALLAR TADQIQI.....	30
II. NUTQ MADANIYATI VA MAHORATINI	
EGALLASHGA OID MATERIALLAR TADQIQI.....	47
XULOSA.....	83
ADABIYOTLAR.....	85

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI
O`zbek filologiyasi fakulteti
O`zbek tilshunosligi kafedrası
MUHAMMADIYEV AKMAL SADRIDDINOVICH**

**NUTQ MADANIYATI MUAMMOLARINING
GAZETADA YORITILISHI**

5220100 – Filologiya(o`zbek filologiyasi) bakalavriat

ta'lim yo`nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar

A.Abdusaidov

SAMARQAND - 2012